

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Qo'lyozma xuquqida

Azizov Umidbek G'ofirjanovich

Mavzu: Sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari.

Mutaxassislik: 5340100 – "Iqtisodiyot"

Bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rib chiqildi va ximoyaga ruxsat etildi: _____ Kafedra mudiri: i.f.n., dotsent R.Ismoilov «__» «_____» 2014 yil	Ilmiy raxbar: _____ i.f.n. dotsent B.I. Raximov «__» «_____» 2014 yil
Fakul tet dekani: _____ i.f.n. dotsent K.Matkarimov «__» «_____» 2014 yil	

Namangan-2014

NAMANGAN MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI
“MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA” FAKUL TETI
“SICHTE va IQTISODI” KAFEDRASI

Tasdiqlayman _____
Kafedra mudiri: i.f.n. dots. R.B.Ismoilov
« _____ » _____ 2014 yil

5340100 – “Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi 14au-10 guruxi talabasi
Azizov Umidbek G’ofirjanovich

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Azizov Umidbek G’ofirjanovich

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi Sanoat korxonalarida mexnat resurslaridan samarali foydalanish yo’llari.

« _____ » _____ 2014 yil kafedra majlisida ma’qullangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati _____

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga doir boshlang’ich ma’lumotlar.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosi bo’lib, borliqni bilishning dialektik uslubi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va mazkur muammoni xal qilish bo’yicha agrar iqtisodchi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy g’oyalari va yo’nalishlar xisoblanadi. Ilmiy ishni amalga oshirishda, iqtisodiy taxlil, monografik kuzatish, statistik guruxlash, ilmiy umumlashtirish, mantiqiy fikrlash va boshqa usullardan keng foydalanildi. Bitiruv malakaviy ishi jarayonida xukumat tomonidan qabul qilingan xuquqiy-me’yoriy xujjatlar, O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika qo’mitasi, Qishloq va suv xo’jaligi vazirligi, Fermer xo’jaliklari kengashi xamda boshqa vazirlik va idoralar ma’lumotlaridan keng foydalanildi.

4. Xisoblash-tushuntirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro’yxati)

1.Namangan viloyatining ma’muriy-xududiy bo’linishi 2.Namangan viloyatining mexnat resurslarining tumanlar bo’yicha bandlik va o’rtacha ish xaqi darajasi xaqida 3“Uchqo’rg’on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining tuzilishi 4.“Uchqo’rg’on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining boshqaruvi. 5.“Uchqo’rg’on - yog” OAJ ning iqtisodiy ko’rsatkichlari. 6.“Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining tarkibi va uning o’zgarish tahlili. 7.“Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko’rsatkichlar tahlili. 8.“Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy holatini ifodalovchi nisbiy ko’rsatkichlari. 9.“Uchqo’rg’on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning dinamikasi. 10.“Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish samaradorligi ko’rsatkichlari. 11.“Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida asosiy vositalar rentabelligi tahlili. 12.“Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida xarajatlar rentabelligi tahlili.13.“Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida aktivlar rentabelligi tahlili.

5. Chizma ishlar ro’yxati (chizmalar nomi aniq ko’rsatiladi.)

1.Mexnat resurslarining tasniflanishi. 2.Sanoat ishlab chiqarish xodimlari guruxlari. 3.Ishlab chiqarishdagi mexnat resurslarining funktsional guruxlari. 4.Mexnat bozorini tartibga solish yo’nalishlari. 5.Axoli bandligini ta’minlashning takomillashtirilgan yangi mexanizmi. 6.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashga ajratilgan kreditlar.

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslaxatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslaxatchi o'qituvchi F.I.Sh.	Imzo	Sana
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	B.I.Rahimov	24.12.13	14.01.14
2	1.1.Mexnat resurslari va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari.	B.I.Rahimov	14.01.14	04.02.14
3	1.2.Modernizatsiyalash sharoitida mexnat munosabatlarining o'rni va axolining ish bilan bandligini ta'minlash yo'llari	B.I.Rahimov	04.02.14	18.02.14
4	1.3.Sanoatda mexnat resurslarini shakllanishining o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari.	B.I.Rahimov	18.02.14	04.03.14
5	2.1. "Uchqo'rg'on-yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyati faoliyatining iqtisodiy tahlili va hozirgi holati	B.I.Rahimov	04.03.14	25.03.14
6	2.2. "Uchqo'rg'on-yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyati mehnat unumdorligini tahlili va uni iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga ta'siri	B.I.Rahimov	25.03.14	15.04.14
7	2.3. "Uchqo'rg'on-yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatida mehnat unumdorligini oshirish va undagi muammolar	B.I.Rahimov	15.04.14	06.05.14
8	3.1.Mexnat resurslari bozorini shakllanishini takomillash-tirish yo'llari.	B.I.Rahimov	06.05.14	20.05.14
9	3.2.Mexnat bozori infratuzilmasi rivojlanish mezonlarini takomillashtirish va xududiy axborot tizimlarini joriy etish	B.I.Rahimov	20.05.14	03.06.14
10	3.3.Mexnat resurslaridan samarali foydalanishning davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish istiqbollari.	B.I.Rahimov	03.06.14	10.06.14
	Xulosa		10.06.14	16.06.14

Topshiriqlar to'liq bajarildi _____

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvd an o'tganlik belgisi
1	Kirish	14.01.14	
2	1.1.Mexnat resurslari va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari.	04.02.14	
3	1.2.Modernizatsiyalash sharoitida mexnat munosabatlarining o'rni va axolining ish bilan bandligini ta'minlash yo'llari	18.02.14	
4	1.3.Sanoatda mexnat resurslarini shakllanishining o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari.	04.03.14	
5	2.1. "Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyati faoliyatining iqtisodiy tahlili va hozirgi holati	25.03.14	
6	2.2. "Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyati mehnat unumdorligini tahlili va uni iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga ta'siri	15.04.14	
7	2.3. "Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatida mehnat unumdorligini oshirish va undagi muammolar	06.05.14	
8	3.1.Mexnat resurslari bozorini shakllanishini takomillashtirish yo'llari.	20.05.14	
9	3.2.Mexnat bozori infratuzilmasi rivojlanish mezonlarini takomillashtirish va xududiy axborot tizimlarini joriy etish	03.06.14	
10	3.3.Mexnat resurslaridan samarali foydalanishning davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish istiqbollari.	10.06.14	
11	Xulosa	16.06.14	

Bitiruv ishi rahbari:Raximov Baxrom Ibroximovich
(familiyasi va ismi)

«_____»
(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim: Tursunov Toxir Boxodirovich
(familiyasi va ismi)

«_____»
(imzo)

Topshiriq berilgan sana 2014 yil _____
Ximoyaga ruxsat 2014 yil _____

Kafedra mudiri: Ismoilov Ravshan Baxridinovich
(familiyasi va ismi)

«_____»
(imzo)

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I-bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoatda mexnat resurslarini shakllanishi va ulardan foydalanishning nazariy va xuquqiy asoslari.....	7
1.1 Mexnat resurslari va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	7
1.2 Modernizatsiyalash sharoitida mexnat munosabatlarining o'ri va axolining ish bilan bandligini ta'minlash yo'llari.....	18
1.3 Sanoatda mexnat resurslarini shakllanishining o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari.....	25
 II-bob. “Uchqo'rg'on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida mexnat resurslaridan foydalanishning hozirgi xolati.....	30
2.1. “Uchqo'rg'on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyati faoliyatining iqtisodiy tahlili va hozirgi holati.....	30
2.2. “Uchqo'rg'on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyati mehnat unumdorligini tahlili va uni iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga ta'siri.....	39
2.3. “Uchqo'rg'on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida mehnat unumdorligini oshirish va undagi muammolar.....	43
 III-bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mexnat resurslari bozori va mexnat resurslarini ijtimoiy tizimini shakllantirish istiqbollari.	50
3.1. Mexnat resurslari bozorini shakllanishini takomillashtirish yo'llari.....	50
3.2 Mexnat bozori infratuzilmasi rivojlanish mezonlarini takomillashtirish va xududiy axborot tizimlarini joriy etish.....	56
3.3 Mexnat resurslaridan samarali foydalanishning davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish istiqbollari.....	61
Xulosa.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar	69

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda Respublikamizda barcha soxalarda izchil borayotgan iqtisodiy–ijtimoiy soxalardagi isloxotlar o'zining ijobiy samarasini berayotganligi sanoat tarmoqlarini rivojlanishini jadallik bilan o'sib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, bugungi kundagi muxim masalalardan biri bu soxadagi samaradorlikni yanada oshirish, sanoat yalpi ichki maxsulotdagi ulushini yanada oshirishdir. Iqtisodiy samaradorlikka erishishda esa mexnat resurslarining tutgan o'rni benixoyat katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligi darajasi mexnat unumdorligi darajasi va uning o'sishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, mexnat unumdorligi darajasi ishlab chiqarish usulini xam, xatto ijtimoiy – siyosiy tuzumning o'zini xam belgilab beradi. U ishlab chiqarilgan maxsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mexnat xarajatlariga nisbati, ya ni mexnat xarajatlari birligi xisobiga ishlab chiqarilgan maxsulot bilan belgilanadi.

Prezidentimiz I.A. Karimovning Jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari dasturida ta'kidlanganidek, “....axolining ish xaqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish xamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlar xam izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa el-yurtimizning farovonligini yuksaltirish, axolining xarid qobiliyatini oshirishni ko'zda tutadigan eng muxim ustuvor maqsadlarimizga to'la mos keladi”¹.

Shu o'rinda mamlakatimiz sanoat tarmoqlarida mexnat resurslaridan samarali foydalanish maqsadida mexnatni rag'batlantirish, ish xaqini ko'paytirish va axoli daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirish bo'yicha xam qo'lga kiritilgan natijalar xaqida aloxida to'xtalib o'tish joizdir.

Bitiruv malakiviy ishi sanoatda mexnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari (“Uchqo'rg'on-yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyati

I.A. Karimov. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A. Karimov. – T.: O'zbekiston, 2009.- 46 b.

misolida) xamda mexnat resurslari faoliyatini yaxshilashga qaratilganligi uning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida mexnat resurslari va ulardan samarali foydalanish masalalari taxlil qilinib va takomillashtirilib mamlakatimiz, MDX davlatlari va xorijiy mamlakatlarning yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan nazariy xamda ilmiy nuqtai-nazardan o'rganib chiqilgan. Sanoat korxonalarida mexnat unumdorligi va ish xaqi bog'liqligi masalalari Abduraxmonov Q.X., Kostin L.A., Ortiqov A.A., Yuldasheva Sh.M., Karabaeva G., Najimaddinov R, Narziqulov N.R., Muxamedova O.X., Boqieva I.A., Angarov D. A, Rudenko G. G., Murtazaev B.Ch. Tatarnikov ye.A., Xasanov N.X., Xaydarov Sh.U., Yugay L.P. va boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Sanoat korxonalarida mexnat unumdorligini oshirishida mexnat resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqarishdir. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida sanoat korxonalarida mexnat unumdorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ilmiy tadqiqot ishida quyidagi vazifalar belgilandi va o'rganib chiqildi:

1. Sanoat korxonalarida mexnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini nazariy asoslari;
2. Korxonalarda mexnat resurslaridan samarali foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini;
3. "Uchqo'rg'on-yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatini ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini taxlili;
4. "Uchqo'rg'on-yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatida mexnat resurslaridan samarali foydalanishning korxona yakuniy natijalariga ta'siri;
5. Sanoat korxonalarida ish joylari ilmiy asosda tashkil etish va ulardan samarali foydalanish yo'llari;

6. Korxonalarda mexnat resurslaridan samarali foydalanish orqali mexnat unumdorligini oshirish masalalari bo'yicha takliflar berish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Sanoat korxonalarida mexnat resurslari bilan bog'liq taxlillar asosida iqtisodiy munosabatlar bitiruv malakaviyning predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. "Uchqo'rg'on-yog'" OAJ ishninig ob'ekti xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiy va nazariy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish va mamlakat iqtisodiy siyosatiga oid asarlari, sanoat korxonalarida mexnat unumdorligi va ish xaqi bog'liqligi taxlili bo'yicha xorijiy xamda maxalliy olimlarning ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasining sanoat korxonalarida mexnat unumdorligi va ish xaqi bog'liqligi taxliliga qaratilgan qonunlar va me'yoriy xujjatlar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I - bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoatda mexnat resurslarini shakllanishi va ulardan foydalanishning nazariy va xuquqiy asoslari.

1.1. Mexnat resurslari va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari.

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida deyarli barcha tarmoq va soxalarda ishlab chiqarishni texnik va texnologik jixatdan qayta jixozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh maxsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – bu ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlash, uni ma'naviy jixatdan yangilash, tarkibiy jixatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayondir. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

- korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarini chiqarish;
- ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlash;
- maxalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- ishlab chiqarilayotgan maxsulot assortimentini kengaytirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash;
- sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish;
- chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar².

Mamlakatimizda yil sayin sanoatni xissasi yalpi ichki maxsulotda ortib borayotganligi bu boradagi ijobiy isloxlarni izchillik bilan amalga oshirilayotganligining yaqqol isbotidir. Jumladan, Prezidentimiz I.A. Karimovning “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli isloxoatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish”³ – deb nomlangan “2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-

² I.A.Karimov. “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada oshirishdir” – T.: O'zbekiston, 2010. o'quv qo'llanma.

³ I.A.Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari xamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi – T; 2012y

iqtisodiy rivojlantirish yakunlari xamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi"da Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisi kun tartibiga qo'yilgan asosiy masala – bu O'zbekistonning 2012 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlarini muxokama etish va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlab olishdan iborat bo'ldi.

O'tgan yillar yakunlarini sarxisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jaxon iqtisodiyotida xali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, axoli turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustaxkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki maxsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish xajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi xajmi 13,9 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolindi va 7 foizdan oshmadi.

2012 yil mamlakatimizda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shularga qaramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki maxsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etgan bo'lsa 2013 yilda esa Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz qo'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu

avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi⁴.

Shu o'rinda aloxida ta'kidlash joiz-ki, mamlakatimiz iqtisodiyotida mexnat resurslarining saloxiyati va axolining intellektual saloxiyatining ortib borishi xam quvonarlidir. Sanoat korxonalarida mexnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ularni yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko'payib borishiga va buning negizida esa mexnat unumdorligini oshirish muxim masalalardan biri bo'lib xisoblanadi.

Bizga ma'lumki xar qanday jamiyatning va mamlakatning rivojlanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy resurslar ichida mexnat resurslarining xam aloxida o'ziga xos o'rni mavjud. Mexnat resurslarining xar bir birligidan samarali tarzda foydalanish lozimligini bugungi iqtisodiyotni asosi deb aytish mumkin.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish ikkita zarur tarkibiy qismdan: bir tomondan, moddiy resurslar (xom ashyo, asbob-uskunalar va xokazo)dan va ikkinchi tomondan, mexnat resurslaridan, ya'ni kasb malakalari va bilimlariga ega bo'lgan xodimlardan iborat. Boshqacharoq qilib aytganda, mamlakat axolisining bir qismi bo'lgan inson resurslari moddiy resurslar bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish omili sifatida xam namoyon bo'ladi. Biroq, bu omillar o'z xususiyatlariga qarab bir-birlaridan muxim belgilari bilan farqlanadi.

Inson resurslari—bular odamlardir. Ular faqat moddiy ne'matlar yaratib qolmay, shu bilan birga ularni iste'mol xam qiladilar. Odamlar o'zlarning moddiy va ma'naviy extiyojlari jixatidan unchalik bir xil emaslar. Bunga ularning jinsi,

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2014

yoshi, sog'lig'i, oilaviy axvoli, ma'lumot darajasi va boshqa ijtimoiy, psixofiziologik sifatlari sabab bo'ladi. Shuning uchun bir kishi ikkinchisiga o'xshamaydi.

Mexnat resurslari mamlakat axolisining o'z psixofiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan qismidan iboratdir.

Mexnat resurslari deb, o'zining aqliy va jismoniy mexnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mexnatga qobiliyatli kishilar to'plamiga aytiladi.

Bu ta'rifdan shu narsa kelib chiqadiki, mexnat resurslari o'ziga iqtisodiyotda mexnat bilan band bo'lgan kishilarni xam, mexnat bilan band bo'lmasa xam mexnat qilishlari mumkin bo'lgan kishilarni xam qamrab oladi. Boshqacha aytganda, mexnat resurslari xaqiqiy (real) va potentsial xodimlardir.

Ma'naviy rivojlanish darajasi deganda umumta'lim va kasbiy bilimlar xamda ko'nikmalar, shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Bu xususiyatlar insonning tanlagan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shart xisoblanadi.

Insonning xar ikkala sifati bo'lgan jismoniy va ma'naviy rivoji tasvirlarining ahamiyati iqtisodiyotning rivojlanib borishiga qarab doimiy xolda o'zgarib boradi. Bu xol, o'z navbatda, mexnat sohasidagi mavjud jaxon tamoyilini to'liq aks etgaradi, iqtisodiyotda va umuman, jamiyatda tez va chuqur o'zgarishlar bo'lib turgan davrlarda kishilarning jismoniy va ma'naviy fazilatlari roli ayniqsa ortadi.

Xar qanday jamiyatda xam iqtisodiy va boshqa turdagi faoliyat bo'lishi uchun mexnat bosh masala bo'lib xisoblanadi. Mexnat qilish insonning o'z ish kuchini foydali tarzda sarflashidir, ya'ni bunday foydali sarf natijasida maxsulotlar yoki xizmat turlari yaratiladi. Inson o'z quvvatidan samarasiz tarzda sarflashi mexnat xisoblanmaydi. Mexnat ish kuchining funktsiyasi, ish kuchi esa insonning qobiliyati bo'lib, uning jismidan ajralmaydi. Ish kuchini oldi-sotdi qilish mexnat bozorida yuz beradi. Ishga yollanuvchi shaxs erkin shaxsdir, u o'zi xoxlagan yerda ishlashi mumkin. U o'z shaxsini emas, balki o'z mexnatini sotadi, sotganda xam ma'lum vaqtga va o'ziga ma'qul kelgan narx bo'yicha sotadi. Mexnatni sotib oluvchi bo'lib turli mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, yuridik va jismoniy

shaxslar qatnashadilar. Ular o'zlaridagi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilish maqsadida mexnatni sotib oladilar. Ular shu mexnatdan qandaydir naf yoki foyda olishlari mumkinligi uchun uni sotib oladilar.

Zarur jismoniy va ma'naviy imkoniyatlar insonning yoshiga bog'liq. Ular inson xayotining ilk va yetuk davrlarida shakllanadi va rivojlanib, qarilik chog'ida esa, tabiiy ravishda birmuncha kamayib boradi.

Yosh chegarasi erkaklar 65 yoshga, ayollar 60 yoshga yetgandan so'ng nafaqa olish xuqiqi bilan belgilanadi. Biroq, bu qoidadan istisno xam bor. Organizmga yuksak ruxiy fiziologik bosimlar bilan bog'liq kasb faoliyatining ayrim turlari uchun pensiya chizig'i sezilarli ravishda 5-10 yilga pastroq, ba'zan undan xam ko'proq. Bu yerda imtiyozli shartlarda qarilik nafaqasi tizimi amal qiladi. Ayollar uchun nafaqa yoshi odatdagi xalqaro tajriba darajasida bo'lsada, xamma joyda erkaklarning o'rtacha umr ko'rishi ayollarga nisbatan sezilarli ravishda kamroqdir.

Bu narsa ko'p xollarda noqulay og'ir mexnat sharoitlari bilan bog'liqdir. Shuningdek, bu narsa zarur bo'ladigan "mexnat shkalasi"ni saqlash imkoni yillar o'tishi bilan yo'qolib boradigan kasblar bilan shug'ullanish uchun (masalan balet) xam ta'alluqlidir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, real xayotda ko'pgina «imtiyozli pensionerlar» avvalgi kasblarida yoki boshqa ishlarda o'z ishlarini davom ettirmokdalar, shuning uchun xam ular mexnat resurslari tarkibida qoladilar. Ishlamayotgan nafaqa yoshidagilar esa mexnat resurslarining tarkibidan chiqariladi.

Mexnat resurslariga talab mexnat resurslari keltiradigan foydaga bog'liq va doimo o'zgarib turadi. Mexnatga bo'lgan talab ko'p xollarda ish xaqi o'zgarishiga mos ravishda o'zgarib turadi. Ish xaqi yuqori bo'lsa, mexnatga talab qisqaradi, agar u past bo'lsa, aksincha talab ortadi. Ammo ish xaqi ortgan sharoitda xam mexnatga talab ko'payishi mumkin, chunki ish xaqiga nisbatan mexnat unumdorligi tezroq ortib borishi yuz beradi. Natijada ish xaqiga ketgan qo'shimcha sarfni mexnat unumdorligining ortishi qoplaydi va xatto uning tejalishiga xam olib kelishi mumkin. Shu bilan birgalikda mexnat qilish extiyoj xamdir. Odamlar o'z extiyojlarini qondirish maqsadida mexnat qiladilar.

Ishlab chiqarishlarda mexnat resurslaridan samarali foydalanishning birinchi va asosiy xisoblangan yo'li – bu mexnat resurslariga yuqoriroq darajada xaq to'lashni tashkil etishdir. Avvalambor, ishchi-xodimlarni yuqori unum va samaradorlik bilan ishlashlarini tashkil etish lozim, so'ngra ulardan mexnat unumdorligini oshirishlarini talab qilish mumkin. Buning natijasida ularning ish xaqлари yuqori sur'atlarda ortishi mumkin.

Mamlakatimizda mexnat resurslarini ish bilan band qilishga va ulardan samarali ravishda foydalanishni tashkil etish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Keyingi paytlarda katta miqdorda yangi ish o'rinlari yaratildi. Endilikdagi vazifa – ushbu yaratilgan ish o'rinlarini monitoring qilish va nima uchun ularda odamlar nisbatan kam miqdorda qiziqish bildirayotganliklarini aniqlashdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ushbu dolzarb muammoni yechish nafaqat iqtisodiy, balki, ulkan siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, xalqimiz turmush darajasi va farovonligini oshirish bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu masalani yechishda mamlakatimizdagi barcha tashkilotlar va raxbar xodimlar qatnashishlari, qabul qilinayotgan barcha qaror va farmonlar, dasturlar qatnashishlari shart. Barcha me'yoriy xujjatlarda ushbu masala xisobga olinishi lozim. Axolining vaqtincha bo'sh bo'lgan qismini ish bilan ta'minlash orqali mamlakatimizdagi yalpi ichki maxsulot xajmi xam ortib borishiga erishish mumkin.

Bizga ma'lumki, yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan ushbu yo'nalishlarning deyarli barchasi katta kapital mablag'larni talab etmaydi. Ularda ko'zda tutilgan ko'rsatkichlarning to'la bajarilishi biz uchun muxim ahamiyatga ega.

Mexnat resurslaridan foydalanish samarasini oshirishda ularni tasniflashga xam e'tibor qaratish lozim. Mexnat resurslari ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida qatnashish darajasiga mos ravishda ma'lum guruxlarga ajratiladi. Bugungi kundagi mexnat resurslarini tasniflash bo'yicha barcha xodimlarni ikki guruxga bo'lingan:

1. Sanoat ishlab chiqarishi xodimlari.


2. Sanoat ishlab chiqarishidan tashqari xodimlar

Sanoat ishlab chiqarishi xodimlari asosan ishlab chiqarishda qatnashadigan xodimlar bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir :


- Maxsulot ishlab chiqarish bo'yicha asosiy ishlarda band bo'lgan xodimlar.
- Asosiy ishlab chiqarishni bir maromda borishiga yordam ko'rsatuvchi xizmat ko'rsatish va yordamchi jarayonlarda qatnashayotgan xodimlar.
- Asosiy ishlab chiqarishga ko'maklashuvchi xamda ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlashda band bo'lgan xodimlar, ko'makchi va qo'shimcha ishlab chiqarish xodimlari.
- Korxonadagi laboratoriyalar, tajriba moslamalarida, tadqiqot muassasalarida band bo'lgan xodimlar.

1-rasm..

Mexnat resurslarining tasniflanishi



- Korxona boshqaruvida band bo'lgan xodimlar. Konstruktorlik bo'limlari, me'yorlash bo'limlari, iqtisodiy taxlil va shu singari bo'limlar xodimlari.
- Korxonani qo'riqlashda band bo'lgan xodimlar.

Sanoat ishlab chiqarish xodimlari guruxlari.

Ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha xodimlarni ushbu tasniflanishga binoan quyidagi guruxlarga ajratiladi:

1. Ishchilar.
2. Xizmatchilar
3. Muxandis-texnik xodimlar
4. Kichik xizmat ko'rsatish personali
5. O'quvchilar va shogirdlar
6. Qo'riqlash va yong'inga qarshi kurashuvchi bo'linma xodimlari.

Ishlab chiqarishni bir maromda borishini ta'minlaydigan, maxsulot ishlab chiqarishda to'g'ridan-to'g'ri qatnashadigan shaxslar ishlab chiqarish xodimlarining asosiy guruxini, ya'ni ishchilarni tashkil etadilar.

Korxonada faoliyat ko'rsatayotgan ishchilar bajarayotgan ishlariga mos ravishda to'rt guruxga mansub bo'ladilar:

1. Mexnat buyumlarini yaratishda to'g'ridan-to'g'ri qatnashayotgan xodimlar, ular mexnat qurollari vositasida mexnat buyumlariga ta'sir ko'rsatadilar,

ularning shaklini o'zgartirishga sababchi bo'ladilar va iste'mol uchun yaroqli xolga olib keladilar. Ularni asosiy ishchilar deb ataymiz.

2. Mexnat buyumlarini va tayyor maxsulotni tashish, joyini almashtirish, saqlash va taxtlash ishlari bilan band bo'lgan xodimlar.


3. Ishlab chiqarishdagi dastgoxlar, asbob-uskunalarni ta'mirlash, dastgoxlarni nazorat qilish, ta'mir uchun ba'zi bir qismlarni tayyorlayotgan xodimlar.

4. Ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning sifatini texnik nazoratini amalga oshirayotgan xodimlar.

Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi guruxlardagi xodimlarni yordamchi ishchilar guruxi deb ataymiz.

3-rasm

Ishlab chiqarishdagi mexnat resurslarining funktsional guruxlari.



Ishlab chiqarish korxonasida korxonaning ishlab chiqarishdan tashqari soxalarida ishlayotganlar, bolalar bog'chalari, klublar, ko'makchi xo'jaliklar, turar-joylarga xizmat ko'rsatayotgan xodimlar xam mavjud bo'lib, ularni ishlab chiqarishdan tashqari xodimlar guruxiga kiritiladi. Ular korxonadagi ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lmagan ishlarni bajaradilar.

Rivojlangan mamlakatlarda allaqachon «iqtisodiy jixatdan faol axoli» tushunchasi qaror topgan. Xalqaro standartlarga muvofiq ularga mexnat bilan band axoli va ish qidirayotgan ishsizlar kiradi. Shuningdek, «fuqorolik jixatidan iqtisodiy faol axoli» tushunchasi xam tarqalgan bo'lib, unga xarbiy xizmatchilar kiritilmaydi.

Shunday qilib, «mexnat resurslari» o'z mazmuniga ko'ra, «iqtisodiy faol axoli» tushunchasidan kengroqdir. Iqtisodiy faol axolidan tashqari mexnat resurslari yana mexnatga layoqatli yoshdagi o'quvchilarni xam, shuningdek, ana shu yoshdagi uy bekalari va mamlakatning qolgan barcha axolisini, ya'ni ishsiz bo'lmasa xam, qandaydir sababdarga ko'ra, mamlakat xo'jaligida ish bilan band bo'lmagan axolini xam o'z ichiga oladi.

Xozirda «ishchi kuchi» tushunchasi ko'p ishlatilsada, uning chegarasi aniq belgilanmagan. Ba`zan ish kuchi deganda xam xaqiqiy xodimlar, xam potentsial xodimlar, ya'ni amalda o'sha «mexnat resurslari»ning o'zi tushuniladi. Ko'pincha bu tushuncha tor ma`noda xodimlarning umumiy sonini anglatadi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash mexnat jarayoni mazmunini o'zgartirishga, takomillashtirishga majbur qiladi. U ishlab chiqarishdagi mexnat resurslaridan foydalanish soxasiga katta talablar qo'ymoqda. Xozirgi vaqtdagi mexnat resurslari yuqori malakaga ega bo'lishlari, zamonaviy asbob-uskunalarda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Shu bilan birgalikda ular yuqori mexnat unumdorligiga erishish bilan birgalikda, mexnat sifatini oshirib borishlari, raqobatbardoshli maxsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya oladigan bo'lishlari, raqobatbardosh xizmatlarni ko'rsata bilishlari lozim. Aks xolda, ular tomonidan tamalga oshirilgan ishlarning sifati pasayadi va ishlab chiqarilgan maxsulotlarni va ko'rsatilayotgan xizmatlarning iste'molchilari kamayib ketishi muqarrar. Ulardagi mexnat ko'nikmalari bilan bir qatorda nazariy bilimlar xam tobora ko'proq rol o'ynay boshlaydi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida ishlab chiqarishdagi xodimlar kasblari va ixtisoslari tobora murakkablashib boradi. Ular turli rusumdagi dastgoxlarda ishlar ko'nikmalariga ega bo'lishlari, axborot texnologiyalarini

yaxshi bilishlari va ishlab chiqarishda ulardan foydalanishlari lozim. Shundagina mexnat resurslari samarali ishlay boshlaydi.

Mexnat resurslaridan samarali foydalanish masalalarini o'rganishda iqtisodiyotni modernizatsiyalash davri xususiyatlarini xam xisobga olish lozimdir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash shunchaki gap emas. U mamlakat iqtisodiyotini tubdan yangilash, uning barcha soxalarida o'zgartirishlar kiritish va buning natijasida iqtisodiyot kompleksining samarali ishlashini amalga oshirishdir. Bu murakkab bo'lgan vazifani bajarish uchun mexnat resurslaridan samarali ravishda foydalanish lozim. Mexnat resurslaridan samarali foydalanish uchun esa, avvalambor ularni boshqarish zarur. Mexnat resurslarini boshqarishda, asosan ulardan maqsadga muvofiq foydalanish, ularni texnika va texnologiya, moddiy xom ashyo resurslari bilan o'z vaqtida ta'minlash, mexnat resurslarining malakalarini oshirish kabi ishlarni amalga oshiriladi. Mexnat resurslarini boshqarish orqali ularga nisbatan ta'sir ko'rsatiladi. Natijada, mexnat resurslarining unumdorligi ortib boradi va yalpi ichki maxsulotga qo'shadigan xissalari ortib boradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ishlab chiqarilgan maxsulot yoki ko'rsatilgan xizmat raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri – mexnat resurslarini tashkil etish va samarali tarzda boshqarishdir. Mexnat resurslarini boshqarishni takomillashtirish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mexnat unumdorligini o'stirish kundan-kunga katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Xar qanday ishlab chiqarish jarayoni birinchi navbatda mexnat jarayonidan iboratdir. Mexnat jarayoni mexnat resurslarining mexnatini, mexnat buyumini va mexnat vositalarini o'z ichiga oladi. Mexnat – kishilarning ma'lum bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyati bo'lib, bu faoliyat natijasida ular tabiatdagi mavjud narsalarni o'zgartirish, o'z ehtiyojlariga moslashtirish orqali moddiy ne'matlar va madaniy boyliklar yaratadilar. Mexnatning shu tariqa ifoda topgan tabiati xar qanday kishilik jamiyatida xam ishlab chiqarishning asosiy sharti bo'lib qolaveradi. Chunki, mexnatsiz moddiy ne'matlar yaratilishi, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonining bo'lishi mumkin emas.

Mexnat resurslarining mexnati yo'naltirilgan tabiatdagi barcha narsalar mexnat buyumi deb ataladi. Kishilar o'z mexnati buyumlariga qanday vositalar bilan ta'sir ko'rsatsalar, ana shunga mexnat vositasi deyiladi. Mexnat vositalari orasida mexnat qurollari muxim rol o'ynaydi. Mexnat buyumlari bilan mexnat vositalari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil etadi. Ammo, ishlab chiqarish vositalari xar qancha zamonaviy, rivojlangan, takomillashgan bo'lsada, xatto jaxon andozalari talablariga to'la javob bersada, o'z xolicha xarakatga kelmaydi. Ular faqat ishchi kuchi, ya'ni insonning mexnat qobiliyati bilan birlashgandan keyingina xarakatga keladi, mexnat jarayoni amalga oshadi, moddiy ne'matlar ishlab chiqariladi yoki ma'lum xizmatlar ko'rsatiladi. Demak, mexnat jarayoni, ya'ni moddiy ne'matlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida mexnat resurslarining bevosita mexnati muxim ahamiyatga ega. Mexnat resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan boshqarish, tashkil etish va rejalashtirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash sharoitida yanada muxim ahamiyat kasb etmoqda.

1.2 Modernizatsiyalash sharoitida mexnat munosabatlarining o'рни va axolining ish bilan bandligini ta'minlash yo'llari

Xar bir mamlakatning mexnat bozoridagi axvoli birinchi navbatda, uning iqtisodiyotiga bevosita bog'liq. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash mexnat bozorlariga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, yangi texnika va texnologiyalarni kirib kelishi qo'l mexnatini kamaytiribgina qolmay balki, ishsizlik darajasini ortishiga xam olib keladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson saloxiyatini rivojlantirish bevosita ish bilan bandlikka bog'liq.. Mexnat bozorida ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi birgina iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatib kelmasdan, iqtisodiyot raqobatbardoshligiga xam putur yetkazadi. Bunday nomutanosiblik oqibatida:

- yalpi ichki maxsulot xajmining o'sish sur'atlari pasayadi;
- iqtisodiyot tarkibida xam nomutanosibliklar (tarmoq va ishlab chiqarish infrazilmalari rivojlanishining nomutanosibliigi) paydo bo'ladi;

- xududlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi bo'yicha tabaqalanishi kuchayadi;
- norasmiy sektorlarda to'liq bo'lmagan va samarasiz ish bilan bandlik ko'lami kengayadi;
- davlat byudjeti va axolini ijtimoiy muxofaza etish tizimida sarf-xarajatlar ortadi;
- mexnat unumdorligi va ishlab chiqarish xajmining pasayishi kuchayadi.

Inson rivojlanish kontseptsiyasi nuqtai nazaridan ish bilan bandlik xal qiluvchi axamiyatga ega. Inson mexnat faoliyatini amalga oshirar ekan, mutanosib turmush kechirish uchun daromad oladi. Bu daromad esa, insonga faqat o'z salohiyatini namoyon etishni ta'minlabgina qolmasdan, inson kapitali-ta'lim, sog'liqni saqlash soxalariga shaxsiy investitsiyalar kiritish imkonini xam beradi. Ayni paytda bevosita mexnat faoliyati ish bilan band xar bir kishiga o'zi tomonidan jamg'arilgan inson kapitalini ijtimoiy ishlab chiqarishga sarf etishga xizmat qiladi. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotini jadal sur'atlarda rivojlantirish va xalq farovonligini oshirishning asosiy omilidir.

Mexnat bozor nomutanosibligi yashirin ishsizlik ortadi, mexnat bozorida ishchi kuchi taklifi ortiqcha bo'lganligi sababli uning qiymati pasayishida o'z ifodasini topadi. Bu esa, axolining turmush darajasi va daromadlariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axoli umumiy tarkibida kam ta'minlangan toifalar salmog'i ko'payadi, shu bilan birga daromadlar o'rtasida tabaqalanish kuchayadi. Ayni paytda qonun bilan muxofaza etilmagan ish bilan bandlik ko'lamlari xam kengayadi.

Ayni shunday salbiy oqibatlarining O'zbekistonga salbiy ta'sir va oqibatlarini tez va chuqur taxlil qilishni ta'minlovchi makroiqtisodiy manitoring tizimini yaratish zaruriyati tug'ilgan. Shu bois, xozirgi kunda axolini bandligini ta'minlash maqsadida "Ish o'rinlarini yaratish dasturi"ni amalga oshirish doirasida bajarilgan va bajarilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida yil yakunlari bo'yicha Prezidentimiz Islom Karimovning ma'ruzalarida aloxida ta'kidlab o'tadilar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mexnat bozori samarali faoliyat olib borish uchun quyidagi masalalarga aloxida e'tibor berish talab etiladi:

- mehnat bozorida ishchi kuchini sifati va raqobatbardoshligini oshirish. Bu esa, mehnat resurslarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni xayotiy zaruriyatga aylantiriladi.

- axolini ish bilan ta'minlashning eng samarali vositalari bo'lgan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasankchilikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal sur'atlarda rivojlantirish;

- axolining ijtimoiy ximoyaga muxtoj bo'lgan toifalari uchun ish o'rinlarini kvotalash;

- yangi ish o'rinlari yaratayotgan ish beruvchilarni rag'batlantirish, ularga soliq, kredit imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berish;

- davlat va maxalliy byudjetlar mablag'lari xisobidan vaqtinchalik va jamoa ishlarini tashkil etish.

O'zbekistonda davlat o'z zimmasiga bosh isloxotchi vazifasini olgan. Bu bevosita mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishga xam taaluqlidir. Bugungi kunda mamlakatda axolining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilarni qamrab oladi:

1. Axolini ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish xamda ishsiz axolini yangi, mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-xunarlarga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnika va tenologik jixatdan qayti jixozlash, ayniqsa, tarkibiy o'zgarish va diversifikatsiyalashga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi maxsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni xam ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish. Bunda, esa avvalo, ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitlarida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan xolda axolini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moiaviy mablag'larni oqiloni taqsimlash chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Mamlakat axolining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Mehnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi xam bir qator

chora-tadbirlarini belgilab, uni amalga oshirmoqda. Vazirlikning bu soxadagi asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- xududlar, iqtisodiy tarmoqlari va xo'jalik yurituvchi sub`ektlar bo'yicha ish joylari yaratilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borish;

- mexnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan xududlarda kichik biznes, xizmat ko'rsatish va servis soxasini jadal rivojlantirish, axoli uy-xo'jaligini qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish joylarni yaratishga ish bilan bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'larining ustuvor ajratilishini ta'minlash;

- tuman (shaxar) ish bilan bandlikka ko'maklashish markazlarining kollejlari bitiruvchilari va muddatli xarbiy xizmatni tugallab kelganlarning ish bilan bandligini ta'minlash, ixtisoslashtirilgan ish joylari yarmarkalarini o'tkazish chora-tadbirlarini faollashtirish;

- mulkchilik va xo'jalik shakli, idoraviy bo'ysunishdan qat'iy nazar korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilish, kasb-xunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash yuzasidan mexnat qonunchiligiga qat'iy rioya etilishini nazorat qilib borish va tekshirish.

Mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratishda quyidagilarga aloxida e'tibor qaratilishi maqsadga muvoffiqdir:

- bozorda raqobatbardosh, yuksak ekaport saloxiyatiga ega tayyor maxsulot ishlab chiqarini ta'minlaydigan, zamonaviy, yuqori unumli texnik jixozlar va texnologiyalar bilan ta'minlangan ishlab chiqarishlarni kengaytirish va yangilarini barpo etishga;

- bozor kon'yukturasiga tez moslasha oladigan, ishlab chiqarish xajmi bo'yich uncha katta bo'lmagan korxonalar barpo etishga, bu korxonalarda maxsulot turlarini kisha muddatda ko'paytirish imkonini beradigan moslashuvchan texnologiyalarni joriy qilishga;

- yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishda asosan maxalliy xom-ashyo va moddiy resurslardan foydalanishni nazarda tutishgan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlashamda yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida kichik korxonalar tashkil etish chora-tadbirlarini ko'rish o'ta muxim. Bu

korxonalarda ustuvor ravishda qishloq axolisini, ayniqsa, yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlash talab etiladi.

Yangi ishchi o'rinlarni yaratish siyosati mavjud ish o'rinlarini saqlab turish siyosatida tubdan farqlanishi kerak. Xususan, ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlardagi ish o'rinlarini saqlab turish dasturlari xodimlari ommaviy ravishda ishdan bo'shatilishining oldini olishgan qaratilgan chora-tadbirlar sifatida baxolanishi lozim. Chunki, katta korxonalardagi iqtisodiy jixatdan saqlab qolinishi maqsadiga muvofiq bo'lgan xamda istiqbolli ish o'rinlarini saqlab qolish yangi ish joylari yaratish uchun ajratilayotgan mablag'larga nisbatan ancha ko'p mablag' talab etidi. Shuning uchun ajratilayotgan mablag'larni boshqa investorlar bilan birgalikda investitsiya dasturlarini qisman moliyalash uchun maqsadli yo'naltirish yuqoriroq samara beradi. Bu mablag'lar muayyan investitsiya dasturlari uchun maxsus ochilgan xisobvaraqlariga kelib tushishi kerak. Ana shu maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag'larga soliq imtiyozlari berilishi, imkoniyat bo'lsa, ular soliqdan to'liq ozod etilishi lozim.

Mul tipikativ samara beradigan (masalan, avtomobillarga xizmat ko'rsatadigan ta'mirchilar, yuk tashuvchilar va ortuvchilarni ishga jalb etish nazarda tutiladigan, xaydovchilar uchun yoki qurilish ishlariga aloqador boshqa tarmoqlada xam qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkonini beradigan loyixalar) loyixalarni tanlab olish juda muxim. Xo'jalik yurituvchi sub'etlarning biznes rejalarida bu koopnrativ aloqalarni aloxida ajratib kqrsatish maqsadga muvofiq. Yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida korxonalarga moliyaviy yordam ko'rsatishda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish uchun xam, mavjud ish o'rinlarini saqlab qolish uchun xam mablag' ajratilishi ko'zda tutilishi kerak.

Xududiy mexnat bozori doirasida yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha dasturlarni amalga oshirishda maxalliy xokimiyat organlari muayyan korxona ishlab chiqarayotgan maxsulot yoki ko'rsatayotgan xizmitning iste'molchisi sifatida maydonga chiqishlari mumkin. Bugungi global inqiroz sharoitlarida aniq bir tadbirkorni qo'llab-quvvatlashning eng asosiy kafolati u tomondan ishlab chiqarilgan maxsulotni ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini qoplaydigan xamda foydaning o'rtacha me'yorini shakllantiridigan narxda sotib olishdir.

Muayyan tuman yoki shaxar miqyosida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarayotgan maxsulotlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga kafolatli talab tizimini shakllantirish xududiy mehnat bozorida ish kuchiga jamlanma talablar ortishiga xizmat qiladi. Tovar ishlab chiqaruvchilarning aksariyati turdosh korxonalar, bozor infratuzilmasi korxonalari xizmatlaridan foydalanishini rizada tutishi kerak. Buning natijasida ushbu sheriklar xam ishchi kuchiga talabni oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Qo'shimcha ishchi o'rinlari tashkil etishni bunday mexanizmini yaratish va u samarali amal etishini ta'minlash mazkur dastur amalga oshirilayotgan xududa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xajmlarini oshirish, demak, qo'shimcha ish kuchiga talabni shakllantirishning eng ta'sirchan vositasidir.

Jaxon tajribasi ishga muxtoj axoli uchun xaq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish bilan bandlikni ta'minlashning samarali usullaridan biri ekanligidan dalolat beradi. So'nggi yillarda jamoat ishlari ko'lamlari kengiyib bormoqda., ular ishga muxtoj axolini vaqtinchalik ish bilan ta'minlashda tobora muxim rol o'ynamoqda.

Birinchidan, yangi ish o'rinlarini yaratish davlat organlari boshqaruvi barcha bo'g'inlarida bosh strategik vazifa xisoblanadi. Keyingi yillar amaliyoti yangi yaratilgan ish o'rinlari dastlabki yildayoq tugatilishi xollari uchrayotganligidan dalolat beradi. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratish bilan bog'liq maqsad va vazifalarni amalga oshirishga kompleks yondashilmaganligi oqibatidi. Joylarda ko'proq miqdoriy ko'rsatkichlar ketidan quvishga xarakat qilinayotganligini kuzatish mumkin. Bu muammolar qator boshqaruv organlari mutasaddilarida ijtimoiy muammolarni xal etish uchun bilim va tajriba yetishmayotganligini ko'rsatmoqda. Yangi ish o'rinlari yaratishda xayot talablarini xisobga olish zarur.

Ikkinchidan, kichik va xususiy korxonalar uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimi shu kun talabidan orqada qolayotganligini xam xisobga olish kerak. Maxsus tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan sotsial tadqiqotlar mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rin egallagan ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulk egalarining qariyb 90.0 % i o'z korxonalarida yollanma xodimlar malakasini

oshirishga e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'layotganliklaridan dalolat beradi. Shu bilan birga so'rovlar mulk egalariining o'zlari xam bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ishlab chiqarishga malakali raxbarlik qilish uchun o'z bilim darajalarini oshirishga e'tiborsizlik bilan qarashayotganini ko'rsatmoqda.

Shuni xisobga olgan xolda boshqaruv organlari, ayniqsa, maxalliy xokimiyat idoralari oliy muassasalar bilan xamkorlikda xududlarda joylashgan, texnika va iqtisod soxasiga ixtisoslashgan kasb-xunar kollejlarida xam kichik biznes raxbarlari va xususiy tadbirkorlar, xam yollanma xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish bo'yicha amaliy choralar ko'rishni talab etiladi.

Bu jiddiy muammoga zarur darajada e'tibor berilmasligi tufayli davlat tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar yangi tashkil qilingan xususiy korxona raxbarlari bilimi darajasi yetarli emasligi xamda tajribasizlik oqibatida qaytarilmay qolishi, shuningdek, axolining ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini xam obro'sizlantirib qo'yishi mumkin.

Xozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida malakatda ishchi kuchining raqobatbardoshlagini oshirishga xam aloxida e'tibor berish zarur. Buning uchun inqirozga qarshi choralar dasturi asosida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar yo'nalishi va parametrlaridan kelib chiqqan xolda mutaxassislar tayyorlash dasturlarini chuqur taxlil etish. Zarur xollarda ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish xam talab etilmoqda.

Xozirgi vaqtda iqtisodiyotning real sektori, ayniqsa, eksportchi korxonalarni jadal rivojlantirish, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash korxonalari tarmog'ini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarini modernizatsiya qilish maqsadlaridan kelib chiqqan xolda mamlakat ta'lim muassasalarida, birinchi navbatda, kasb-xunar kollejlarida malakali kadrlar tayyorlash, ularning miqdori va ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanishi kerak.

Bundan kasb-xunar kollejlarini xududlarda joylashtirish, ularda tayyorlanayotgan mutaxassislar tarkibi chuqur taxlil qilinishi maqsadga muvofiq. Umuman, xar bir kasb-xunar mutaxassislar tayyorlashni korxonalar buyurtmalariasosida oldindan shakllantirish payti keldi. Shu bilan birga oliy ta'lim

muassasalarida marketing bo'limlari mazkur ta'lim muassasalarida byudjet asosida ta'lim olgan talaba yoshlarni bu o'quv yurtlarini tamomlaganlaridan so'ng maqsadli va manzilli ish bilan ta'minlashni amaliyotgan kengroq jorish etishlar kerak.

Uchinchidan, xududlardagi ish bilan bandlikka ko'maklashish markazlari o'z tuman va shaxar mexnat resurslarining balansi to'g'risida ishonchli ma'lumotga ega bshlishlari juda muxim. Ular xududiy mexnat bozoridagi kon'yunkturaga qarab xamda yil mavsumini xisobga olgan xolda mexnat resurslaridan foydalanish bashoratlarini ishlab chiqishlari xam talab etilmoqda. Buning uchun bu markazlar birgina o'z tuman va shaxarlari bo'yicha emas, balki qushni xududlar, umuman, O'zbekiston bo' yicha ana shunday ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlanishi lozim.

Shuningdek, ish bilan bandlikka ko'maklashish markazlari jaxon va mintaqaviy mexnat bozoridagi kon'yukturadan tezkor xabardor bo'lishlari talab etilmoqda. Ular turli mamlakatlardan xar bir ixtisoslik va kasb-xunar bo'yicha ishchi kuchiga extiyoj to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishlari, fuqarolardan bu xususida so'rovlar tushgan xolda ular mufassal axborot berishlar lozim.

To'rtinchidan, mexnat bozoridagi keskinlikni yumshatish uchun xam mamlakat ichidagi, xam tashqi mexnat migratsiyasi muammolarini qonunchilik yo'li bilan xal etish payti keldi. Jaxon mexnat bozorining tarkibiy qismi xisoblangan O'zbekistondagi mavjud mexnat resurslar chetellarga eksport qilinishi uchun zarur malaka va tajribaga ega. So'nggi paytlarda O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi tomonidan ushbu yo'nalishda katta tashkiliy ishlar olib borilayotganligini ta'kidlagan xolda mexnat migratsiyasini taribga solishda qator muammolar mavjudligini xam ko'rsatish kerak. Bu, ayniqsa, mamlakatimiz fuqarolari o'z tashabbuslari bilan chet ellarda ishlash uchun borishlari sababli ularni ijtimoiy muxofaza qilish muammolari keskinlashishiga olib kelmoqda.

1.3 Sanoatda mexnat resurslarini shakllanishining o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari.

Sanoatda mexnat resurslarini shakllanishining o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlariga to'xtalib o'tilganda, mexnat resurslarini mamlakat xududi bo'yicha taqsimlanishidir. Xar bir xududning iqtisodiy rivojlanish darajasi kishilarning farovonligi va demografik rivojlanishi bilan bevosita aloqador. Mexnat resurslarini shakllantirishning mintaqaviy xususiyatlari, avvalo, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri bilan bog'liqdir. Demografik omillarga axolining takror ishlab chiqarilishidagi jadallik kiradi. U xal qiluvchi darajada tug'ilish darajasi bilan bog'liq. Bu daraja kanchalik yuqori bo'lsa, mexnatga qobiliyatli yoshdagi axoli, demak, mexnat resurslari shunchalik tez o'sadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillardan mexnat resurslarini shakllantirish uchun ancha ahamiyatli mintaqadagi ishlab chiqarish va iqtisodiy kon yunktura tuzilmasining xususiyatlari (mexnat unumdorligining o'sishi)ni aytib o'tish mumkin. Bu xol ishlovchi o'smirlar va ishlovchi pensionerlar soniga ta'sir qnladi. Ish o'rinlariying, ayniqsa, o'smirlar va katta yoshdagi ishlovchilar mexnatidan foydalanishga mos keladigan ish o'rinlarining mavjudligi ishlab chiqarish tuzilmasi bilan bog'liq.

Iqtisodiy kon yunktura ish kuchiga bo'lgan talabni oshirish yoki kamaytirishi mumkin. Bu bilan mexnat soxasi kengayadi yoki torayadi, tegishli ravishda qarab chiqilayotgan mexnat resurslarining ishlashi uchun imkoniyatlar ko'proq yoki ozroq bo'ladi.

Mexnat resurslaridan foydalanishning mintaqaviy xususiyatlari xam demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning amal qilishi bilan bog'liqdir. Mexnat resurslaridan foydalanish tomonlaridan biri mexnat resurslarini taqsimlash bo'lsa, ikkinchisi tomoni—mexnatni tatbiq etish samaradorligidir.

Mexnat resurslarini taqsimlash demografik va ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishning mintaqaviy shart-sharoitlari ta'siriga ancha ko'proq uchraydi. Demografik omillarning ta'siri axolining yosh tuzilishi orqali namoyon bo'ladi, u odatda, turli mintaqalarda turlicha bo'ladi. Mexnatga layoqatli yoshdagi kishilarning ishlaydigan va ishlaymaydigan qismlarga bo'linishi ma'lum darajada ana shu bilan belgilanadi. Axoli orasidagi kichik yoshli bolalar soni o'zlarini uy-ro'zg'or ishlariga bag'ishlaydigan ayollar soniga ta'sir ko'rsatadi. Tajriba shundan dalolat beradiki, bu ikki ko'rsatgich o'rtasida bevosita bog'liqlik bor.

Bugungi kunda sanoat korxonalarining moddiy-texnika bazasining rivojlanganligi va takomillashganligi, yangi zamonaviy mashina va qurollarning joriy etilganligi, fan–texnika taraqqiyotini jadallashtirib, ko'plab mexnat resurslarini o'sish dinamikasiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Mexnat resurslari soni (dinamikasi)ning o'zgarishi bilan butun axoli sonining o'zgarishi o'rtasida tabiiyki, bog'liklik bor. Biroq, u birinchi qarashda unchalik ko'zga tashlanmaydi. Mexnat resurslarining soni xamisha butun axoli soni kabi o'zgaravermaydi. O'zgarishlar turli yo'nalishlarda bo'lishi xam mumkin.

Mexnat resurslari butunning qismi sifatida axolining takror ishlab chiqarilishi (ya'ni uning doimiy ravishda tiklanib turishi)ni aks etgiradi. Shuning uchun, mexnat resurslari sonining dinamikasi pirovard natijada axoli soni dinamikasini aks ettiradi.

Xalqaro mexnat tashkiloti (XMT)ning ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi mexnatga layoqatli axolining xar uchinchisi yo ishsiz, yoki qashshoqlikda xayot kechirmoqda. Bu xolatdan chiqish uchun 600 mln.ta ish o'rni yaratishga qaratilgan global xatti-xarakatlar yordam berishi mumkin.

“Xukumatlarning qattiq sa'y-xarakatlariga qaramasdan ish o'rinlari bilan bog'liq inqiroz pasaymayapti. Dunyodagi xar uchta ishlovchidan bittasi, bizning xisob-kitoblarimizga ko'ra bu 1,1 milliard. kishi – yo ishsiz, yoki qashshoqlikda yashamoqda, – deb ta'kidladi Xalqaro mexnat tashkiloti bosh direktori Xuan Somaviya. – Real iqtisodiyotda ish o'rinlarini yaratish asosiy ustuvor yo'nalishga aylanishi lozim”.

“Agar o'tgan yil bilan taqqoslanadigan bo'lsa, prognoz yanada umidsiz tus oladi. Biz ishsizlikning ma'lum darajada pasayishini kutgan edik. Biroq, 2012 yilda bunday xolat ro'y bermadi. Iqtisodiy o'sishning pasayishi sharoitida ishsizlikning yanada o'sishi kuzatildi”, – deb izoxlaydi XMT bayonoti mualliflaridan biri Ekkexard Ernst.

XMT prognozlariga ko'ra, 2012 yilda jaxondagi ishsizlar soni 3 million kishiga ko'payadi. Agar jaxon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari 2 foizdan past bo'lsa, u xolda mazkur raqam 4 million kishiga qadar yetishi mumkin. Aksincha,

agar yevroxudud mamlakatlari qarz inqirozidan tezlik bilan chiqa olsa, bu raqam 1 million kishiga pasayishi mumkin.

Mamlakatimizda xam mazkur xolatlar va ularni oldini olish chora-tadbirlari puxta ishlab chiqilgan reja asosida xal etilmoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda raqobatbardoshlikni ta`minlash uchun kadrlar masalasiga aloxida e`tibor qaratish zamon talabiga aylanib bormoqda. Shunday ekan, mexnat saloxiyatidan to`liq va samarali ravishda foydalanish uchun mexnat saloxiyatini baxolash va undagi o`zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib borish kerak bo`ladi. Qo`lga kiritilgan natijalar asosida korxona kadrlar siyosatida tegishli o`zgartirishlar amalga oshirilib, mavjud mexnat saloxiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora -tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mamlakatimizda joriy demografik vaziyatni taxlil qiladigan bo`lsak, so`nggi yillarda axolining o`rtacha yillik o`sish darajasi nisbatan yuqoriligiga guvox bo`lamiz. Bugungi kunga kelib, jami axoli soni 29 mln.dan oshgan bo`lsa, ularning 55 foizga yaqini mexnat resurslaridir va bu ko`rsatkich 14.4 mln. kishini tashkil etadi. O`zbekiston dunyo bo`yicha axolisi eng yosh mamlakatlardan biri xisoblanib, axolisining o`rtacha yosh darajasi 24 yoshga tengdir. Bu xolat esa Respublikamizda mexnat qilishga xam jismonan, xam ruxan qodir bo`lgan, yuksak mexnat faolligi va kasbiy tayyorgarlikka ega axoli ko`pchilikni tashkil qilishidan dalolat beradi. Ko`rinib turibdiki, O`zbekiston ulkan mexnat saloxiyatiga ega mamlakat bo`lib, ushbu saloxiyat tez sur`atlarda o`sib bormoqda. Axolining sonini yosh tuzilmalari bo`yicha taxlilidan ma`lum bo`lishicha, yaqin 5 yil ichida mexnat bozorida ishchi kuchining katta oqimi paydo bo`ladi. Chunki, xozirda 10-15 yoshdagi axoli soni ko`pchilikni tashkil etib, ularning mexnat bozoriga kirib kelishi uchun ishchi kuchi taklifining oshishiga olib keladi. Mexnat saloxiyatini o`sishi ijobiy xol albatta ko`pchilik qismini mexnatga layoqatli yoshdagi mexnatga qobiliyatli axoli tashkil etadi. Mexnat qilishga layoqatli yoshdan katta kishilar, ishlovchi pensionerlar va amalda «nol» vazifasini bajaruvchi shaxslar, mexnatga layoqatli yoshdan kichik kishilar, ishlovchi o`smirlar mexnat resurslarining salmog`ida u darajada sezilarli rol o`ynamaydi.

Mamlakatimizda isloxotlarning dastlabki davridan boshlab mexnat resurslaridan

samarali foydalanish masalasiga aloxida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Taraqqiyotning o'zbek modeli – biz tanlagan strategik yo'lining eng muxim va ustuvor yo'nalishlari bilan bevosita bog'liqdir. Aytish joizki, mustaqillik yillarida (1991-2013y.) O'zbekiston axolisining soni 10,4 million kishiga, ya'ni o'rtacha yiliga 454,5 ming kishidan ko'paydi. O'tgan qariyb 22 yil mobaynida respublikada axoli soni – 1,35, shaxar axolisi – 1,73, qishloq axolisi esa 1,1 marta ko'paydi. Ayni vaqtda ana shu davrning turli bosqichlarida mamlakatimizda shaxar xamda qishloq darajasida axoli sonining ko'payish sur'ati xar xil bo'lganini kuzatish mumkin.

2007-2011 yillar davomida jami axoli sonining 2051,1 ming kishiga yoki 7,5 foizga ko'paygani, biroq ko'rilayotgan davrlar oralig'ida yurtimizning shaxar va qishloq joylarida axoli sonining o'sish sur'atlari bir me'yorda kechmagan. Jumladan, 2011 yilda 2007 yilga nisbatan shaxar axolisi soni 55,4 foizga ko'paygan bo'lsa, qishloq axolisi esa 18,7 foizga kamaygan. Shu bilan birga, bu davrda jami axoli tarkibida shaxar axolisining ulushi 35,4 foizdan 51,2 foizga ortgan, qishloq axolisiniki esa 64,6 foizdan 48,8 foizga kamaygan. Ko'rinib turibdiki, respublikada axolining shaxarlashuv jarayoni kuchaymoqda. Qishloq axolisi sonining kamaygani esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2009 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi axoli punktlarining ma'muriy-xududiy tuzilishini takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi 68-sonli qaroriga ko'ra mamlakatimizdagi 966 ta qishloq punktiga shaxarcha maqomi berilgani bilan izoxlanadi.

Mexnat resurslarining shakllanishining mintaqaviy xususiyatlarni nafaqat respublikamiz, balki viloyatimizning tumanlarini o'ziga xos mintaqalari misolida xam ko'rishimiz mumkin. Viloyatimizdagi barcha tumanlarning ma'muriy-xududiy bo'linishi tumanlar, tumanga bo'y sinuvchi shaxarlar, shaxar posyolkalari, qishloq fuqarolik yig'inlari, qishloq axoli punktlari, maxallalar soni, xonadonlar sonidan kelib chiqib o'zining ma'lum darajadagi ta'siri bilan bevosita bog'liqdir. (1- jadval).

Shu o'rinda aloxida to'xtalib o'tishimiz mumkin-ki, viloyatimizdagi bandlik va ish xaqining o'rtacha miqdori katta farq qilmasada, mintaqalar uchun o'ziga xos tasnifiga ega bo'ladi. (2- jadval). Bundan tashqari band bo'lgan mexnat resurslarining 2011 yilning to'rtinchi choragiga nisbatan 2012 yilning to'rtinchi choragi yakunida axoli daromadlarini oshganligini xam ta'kidlash mumkin bo'ladi.

II-BOB. “UCHQO’RG’ON-YOG” AKTSIYADORLIK JAMIYATIDA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISHNING XOZIRGI XOLATI

2.1. “Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyati faoliyatining iqtisodiy tahlili va hozirgi holati

“Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyati O’zbekiston Respublikasi, Namangan viloyati, Uchqo’rg’on tumani Qurbonaliev ko’cha 2-uyda joylashgan. Jamiyatning asosiy vazifasi-bu pul-tovar munosabatlarini rivojlantirish va ish-xizmatlariga bo’lgan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish hamda ularni realizatsiyasi asosida aktsiyadorlar manfaatlarini ta’minlashdan iborat.

Jamiyatda mehnat faoliyatining turidan qat’iy nazar har bir xodimning mehnat daromadi jamiyat natijalarini inobatga olgan holda uning shaxsiy mehnat ulushi bilan aniqlanadi hamda soliqlar bilan boshqarib turiladi. Xodimlarga ish haqi to’lashning shakli, tizimi miqdori, shuningdek, ular qiladigan boshqa xil daromadlarni jamiyat mustaqil ravishda belgilaydi. Mehnat daromadlarining eng yuqori chegarasi belgilab qo’yilmaydi.

Ijtimoiy rivojlanish masalalari, shu jumladan mehnat, yashash sharoitini va salomatlikni yaxshilash, mehnat jamoasi a’zolarining majburiy sug’urtasi kafolatlariga oid masalalarni jamiyat aktsiyadorlari va ma’muriyati O’zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofiq hal etadilar.

Ochiq aktsiyadorlik jamiyatining faoliyat turlari quyidagilardan:

- Yog’-moy ishlab chiqarish, shuningdek o’simlik yog’i, salomas, sovun, margarin, shrot, sheluxa, olein kislotasi, glitsirin va tarkibida yog’ bo’lgan o’simliklarni qayta ishlash orqali mahsulotlar tayyorlash;
- Dorivor o’simliklarni tayyorlash, qayta ishlash, qadoqlash va sotish;
- Toza ekologik texnologiyalar asosida ishlab chiqarish chiqindilari, mahalliy xom-ashyo manbalaridan foydalangan holda keng xalq iste’moli hamda shaxsiy mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- Aholiga tashkilotlar, muassasalar va korxonalarga turli usul va shakllarda pullik xizmat ko’rsatish;

- Mahsulotlaroni sotib olish va tarqatish bo'yicha savdo - sotiq, olish kabi faoliyatni amalga oshirish;

- Yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek chet el sarmoyadorlarining mol-mulk intellektual mulki va mablag'larini ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda kengaytirish uchun jalb qilish;

- O'zbekiston qonunchiligi asosida tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatish, eksport-import operatsiyalarini bajarish;

- O'ziga tegishli xo'jalik yuritishi hamda xodimlarini oshxona yoki erkin sotuv orqali oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "Uchqo'rg'on-yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyati Nizomiga muvofiq aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va boshqaruv xay'ati jamiyatning boshqaruv organlari hisoblanadi. Jamiyat nizomi Namangan viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan 1995 yil 25 aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan.

3-jadval

"Uchqo'rg'on-yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining tuzilishi

T/N	Familiyasi, ismi, sharifi	Kuzatuv kengashida egallab turgan lavozimi	Ish joyi
1.	B.M.Sapaev	Kuzatuv kengashi raisi	"BASIC CAPITAL" MChJ vakili
2.	F.A.Tulyaganov	Kuzatuv kengashi a'zosi	"VIS AGRO" MChJ vakili
3.	N.Karimov	Kuzatuv kengashi a'zosi	"Qarshi-yog'" OAJ vakili
4.	J.Xojimatov	Kuzatuv kengashi a'zosi	Uychi XBP
5.	K.Saydullaev	Kuzatuv kengashi a'zosi	Nafaqaho'r aktsiyador
6.	T.Ibragimov	Kuzatuv kengashi a'zosi	Aktsiyador
7.	M.S.Yunusxodjaev	Kuzatuv kengashi a'zosi	"VIS AGRO" MChJ vakili

Manba: "Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyati hisoboti ma'lumotlaridan olingan

**“Uchqo’rg’on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining
boshqaruvi**

T/N	Familiyasi, ismi, sharifi	Egallab turgan lavozimi
1.	S.Xakimov	Boshqaruv xay’ati raisi
2.	X.Nuriddinov	Bosh muhandis
3.	L.Tvarovskaya	Bosh hisobchi
4.	N.Abdullaev	Reja bo’limi boshlig’i
5.	Bozorov F.	Vodorod kislorod va Gidrogenizatsiya sexi boshlig’i
6.	Qahharov A.	Mutaxassis
7.	Fulomov M.	Rais muovini

Manba: “Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyati hisoboti ma’lumotlaridan olingan

Shtatlar jadvaliga muvofiq hamma bo’lim va ishlab chiqarish uchastkalari mutaxassislar bilan to’liq ta’minlangan. Korxonani tuzilishiga muvofiq Boshqaruv raisi o’rinbosarlari va tarkibiy bo’linmalari rahbarlari o’z xizmat majburiyatlarini mansab yo’riqnomalariga asosan bajarib kelmoqda. Hozirgi paytda “Uchqo’rg’on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida faoliyat yuritayotgan ishchilarning umumiy soni – 598 kishi. Shundan:

Asosiy ishlab chiqarish jarayonida band bo’lgan ishchilar – 512 nafarni,
Ma’muriy – boshqaruv va ishchi xodimlar soni – 86 kishini tashkil etadi.

“Uchqo’rg’on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida asosan oqlangan paxta yog’i, shrot, sheluxa va soapstok ishlab chiqaradi. Jami tovar mahsuloti hajmida mahsulotlarning miqdori:

Paxta yog’i – 61,7 foiz,

Shrot – 29,5 foiz,

Sheluxa – 8,2 foiz

Soapstok – 0,4 foiz,

Va hakoza – 0,2 foizni tashkil qiladi.

“Uchqo’rg’on – yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida hozirgi kunda 598 ishchi-xodim faoliyat yuritib, shundan 512 nafari asosiy faoliyat bilan

shug'ullanuvchilar tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2011 yilga nisbatan olinganda jami ishchi-xodimlar soni 12 foizga oshdi.

5-jadval

“Uchqo'rg'on - yog'” OAJ ning iqtisodiy ko'rsatkichlari

№	Iqtisodiy ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 y.ga nisbatan, % da
		2011 yil	2012 yil	2013 yil	
1.	Korxona sof foydasi, ming so'm	1015147	1064988	1094697	105,4
2.	Asosiy faoliyat bilan bandlar soni	479	492	512	107,0
3.	Ishchi kuni	129330	135300	138800	107,3
4.	Mehnat unumdorligi, ming so'm	7,8	7,9	7,9	101,3

Manba: Uchqo'rg'on - yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

Hisob-kitob natijalariga asosan aktsiyadorlik jamiyatida asosiy faoliyat bilan shug'ullanayotganlar soni 2011 yilga nisbatan 2013 yilda 7,0 foizga oshib 512 nafarni tashkil etdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu ishchilarning har biri bir kunda korxona sof foydasiga 211 yilda 7,8 ming so'm daromad keltirgan bo'lsa, 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 7,9 so'mga teng bo'lgan. Bunday ijobiy natijaga erishishda “Uchqo'rg'on-yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida Hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilayotganligidan deb qarash mumkin.

“Uchqo'rg'on - yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida amalga oshirilayotgan bir qator ishlar jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyundagi PK-651-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2007-2011 yillar davrida Yog'-moy va oziq-ovqat sanoati korxonalarini modernizatsiyalash va qayta jihozlash” dasturiga asosan va qushimcha ishchi o'rinlarini yaratish borasida yangi “Vodorod Kislorod va Gidrogenizatsiya” sexi ishga tushirilib 50 ta yangi ishchi o'rinlari yaratildi.

Texnik salomas tarkibidagi glitsirin mahsulotini ajratib olish maqsadida 2010-2011 yillarda XXR dan texnologik jihozlar olib kelinib, jamiyatda sutkasiga 5 tonna gletsirin mahsuloti ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yangi tsex qurib

bitkazilgan, hozirgi kunda 24 nafar yosh mutaxassislar doimiy ish bilan ta'minlanganlar.

Jamiyatda 2007 yilda 6 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2007-2011 yillarga mo'ljallangan modernizatsiya dasturiga asosan texnologik uskunalarni modernizatsiyalash va qayta jihozlash natijasida 2011 yilga kelib "Uchqo'rg'on-yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatida 12 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda.

Bundan tashqari zamon talabiga javob beradigan quvvati bir yilda 4800 tonna sovun mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Uchqo'rg'on SOAP ekstrakt" MChJ qurilishi yakunlanib ishga tushirildi. Ushbu MChJ ishga tushirilishi munosabati bilan qo'shimcha 50 kishilik ish o'rinlari yaratildi. Hozirgi kunda "Yog'-moy va oziq-ovqat sanoati" uyushmasining 2011-2015 yillarga rejalashtirilgan korxonalarini modernizatsiyalash va qayta jihozlash dasturiga asosan 150,0 tonna texnik chigitni qayta ishlashga teng bo'lgan 3 dona yog' press agregati va 4 dona jarovnya olib kelinib o'rnatish va montaj ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, texnik solamasni sifatini yaxshilash va tarkibidagi glitserinni ajratib olish maqsadida sutkasiga 5tonna glitserin ishlab chiqariladigan yangi tsex qurib bitkazildi. Buning natijasida ham ushbu bo'limda 20 ta ishchi o'rin yaratildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharaotida ushbu "Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatida aholi bandligini ta'minlashda yangi ish o'rinlarini tashkil etishda korxonada ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda "Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatini Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan ko'p tarmoqli korxonalar tarkibiga kiritish bilan bir qatorda mazkur jamiyatning iqtisodiy holatini ham baholash maqsadga muvofiqdir.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jamiyatning 2013 yil boshida asosiy vositalar va obarotdan tashqari aktivlar miqdori yil ohiriga borib 4,6 foizga oshish hisobidan 3 milrd. 468 mln. 899 ming so'mga teng bo'ldi. Ammo jamiyatning jami

mulkiga nisbatan 3,8 foizga kamaygan. Bunday holat pul mablag'lari hisb kitob va boshqa aktivlarni ortishi hisobidan yuz bergan.

6-jadval

“Uchqo'rg'on - yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining tarkibi va uning o'zgarish tahlili.

Balansning aktivi	2012 yil		2013 yil		farq		O'sish surati % da
	Ming so'm.	Jamiga nisbatan % da	Ming so'm.	Jamiga nisbatan % da	Ming so'm.	%	
1. Asosiy vositalar va obarotdan tashqari aktivlar (qoldiq baxoda)	3315433	50,8	3468899	47,0	+153466	-3,8	104,6
2. Aylanma mablag'lar shu jumladan:							
2.1. Zaxira va xarajat	2887345	44,2	2058589	27,7	-828756	-16,5	-28,7
2.2. Pul mablag'lari hisob kitob va boshqa aktivlar	317379	5,0	1867474	25,3	+1550095	20,3	588,4
Jami mulk	6520157	100	7394962	100	874805	-	

Manba: Uchqo'rg'on - yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

Jamiyatda marketinologlarning faoliyatini ortishi hamda iqtisodchilarning sa'i harakatlari natijasida zaxira va xarajatlarni miqdori yil ohiriga kelib, jami mulkka nisbatan 16,5 foiz, yil boshiga nisbatan olganda esa 28,7 foizga kamayishiga erishilgan.

Pul mablag'lari hisob kitob va boshqa aktivlar yil ohirida yil boshiga nisbatan 20,3 foizga ortgan bo'lsa, jami mulkka nisbatan yaqin 6 barobar ko'payganligini ko'rish mumkin.

Endi aktsiyadorlik jamiyatining asosiy vositalar bo'yicha iqtisodiy holatini ko'rib chiqaylik.

**“Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining asosiy vositalar
holatini ifodalovchi ko’rsatkichlar tahlili**

T/N №	Ko’rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	Farqi (+,-)	O’zgarish sur’ati%
1	Asosiy vositalar qiymati (A_v), ming so’m	4912797	5159435	+246638	105,0
2	Barcha aktivlar (B), ming so’m	10015329	10805635	+790306	107,9
3	Asosiy vositalarning eskirish qiymati (A_{ves}), ming so’m	1634491	1927858	+293367	118,0
4	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so’m	3278306	3231577	-46729	98,6

Manba: Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

Jadval natijalaridan ko’rinadiki, asosiy vositalar qiymati joriy 2013 yilda o’tgan 2012 yilga nisbatan 5 foizga ko’payib, 5 mlrd. 159 mln. 435ming so’mga teng bo’ldi. Jamiyat barcha aktivlari qiymati joriy yilda o’tgan yilga nisbatan 790 mln. 306 ming so’mga oshgan. Xuddi shu kabi asosiy vositalarning eskirish qiymati ham 18 foizga oshganligini ko’rish mumkin. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati esa aksincha o’tgan 2012 yilga nisbatan 46 mln. 729 ming so’mga kamayib, 3 mlrd. 231 mln. 577 ming so’mni tashkil etdi. Albatta bu tahlillar ko’rsatkichlarni hajmiga nisbatan olingan bo’lib, xuddi shu ko’rsatkichlardan foydalangan holda nisbiy ko’rsatkichlarni hisoblash maqsadga muvofiqdir. Chunki, ushbu hisoblanmalar aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy faoliyatiga yanada aniqroq fikr uyg’otishga olib keladi. Qo’yidagi jadval natijalariga ko’ra, asosiy vositalarning umumiy aktivlardagi ulushi 2012 yilda 49,1 foizni tashkil qilgan bo’lsa, 2013 yilga kelib bu ko’rsatkich 1,4 foizga kamaygan. Bu esa o’z navbatida mahsulot ishlab chiqarishda asosiy vositalarni to’liq quvvat bilan ishlamaganligidan dalolat beradi.

**“Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy holatini
ifodalovchi nisbiy ko’rsatkichlari**

T/N №	Ko’rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	Farqi (+,-)
1	A _v -ning umumiy aktivlardagi ulushi,% (1q:2q)x100, %	49,1	47,7	-1,4
2	Av-ning eskirish koeffitsienti (3q:1q)	0,33	0,37	+0,04
3	Av-ning yaroqlilik koeffitsenti (4q:1q)	0,67	0,63	-0,04

Manba: Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

Asosiy vositalarni eskirish koeffitsienti 2012 yilda 0,33 ga teng bo’lgan, 2013 yilda esa 0,04 birlikka ko’payib, 0,37 ni tashkil etgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ushbu ko’rsatkichning me’yori sobiq Ittifoq davrida 0,20-0,25 ni tashkil etgan bo’lsa, hozirgi kunga kelib iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bu me’yor 0,30-0,35 oralig’ida bo’lishi maqsadga muvofiqligi kuzatilmoqda.

Asosiy vositalarni yaroqlilik koeffitsienti $\kappa \geq 0,55$ bo’lganligini e’tiborga oladigan bo’lsak, “Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida ushbu ko’rsatkich me’yor darajasida ekanligidan dalolat beradi.

Rejaga ko’ra, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida “Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011 yildan 2013 yilgacha bo’lgan davrlardagi mahsulot ishlab chiqarish dinamikasining iqtisodiy samaradorlik darajasini o’zgarish tahlilini o’tkazish mumkin qo’yidagi jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan 2013 yilda 2011 yilga nisbatan olinganda shrot – 19,6 foiz, sheluxa – 0,2 foiz, paxta oqlangan yog’i – 4,3 foizga ishlab chiqarish kamaygan. Ammo 2012 yildan ishlab chiqarish yo’lga qo’yilgan yangi mahsulotlar texnik salomas

**“Uchqo’rg’on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqariladigan
mahsulotlarning dinamikasi**

T/N	Mahsulotlar nomi	O’lchov birligi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2013 yilning 2011 yilga nisbatan farqi, %
	Yalpi mahsulot ishlab chiqarish(amaldagi narxlarda)	ming so’m	23879373	29796678	34657886	145,1
1.	Shrot	tonna	32164	21348	28753	89,4
2.	Sheluxa	tonna	25032	15066	24986	99,8
3.	Paxta oqlangan yog’i,	tonna	11467	7587	9832	85,7
4.	Kungaboqar oqlangan yog’i	tonna	488	612	752	154,1
5.	Texnik solamas iG’ch	tonna	9183	10800	11458	124,8
6.	Texnik solamas kislotasi	tonna		2500	2756	110,2
7.	Glitserin	tonna		200	234	117,0
8.	Xo’jalik sovuni 70%	tonna		757	783	103,4

Manba: Uchqo’rg’on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

kislotasi–10,2 foizga, glitserin–17,0 foizga, xo’jalik sovuni–3,4 foizga va oldindan ishlab chiqarilayotgan texnik solamas–24,8 foizga oshgani hisobiga korxonaning yalpi mahsulot ishlab chiqarish xajmi–45,1 foizga oshib, 34 mlrd. 657 mln. 886 ming so’mni tashkil etgan.

“Uchqo’rg’on-yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyati faoliyatining iqtisodiyts tahlil natijalaridan ko’rinib turibdiki, jamiyatning samarali rivojlanishida asosiy ahamiyat texnik yangiliklarga va mahsulot sifatiga qaratilgan bo’lib,. yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo’lga qo’yilganligi va bu jarayon bir necha bosqichlardan tashkil topib, uning natijasiga har bir bosqich uchun javob beradigan konstruktor, texnologlarni ishga olinishi bir tomondan aholining ish bilan bandligini ta’minlangan bo’lsa, ikkinchi tomondan yangi mahsulotlar ishlab

chiqish bilan aholi ehtiyojini qondirish orqali mehnat unumdorligini oshirishga erishildi.

2.2. “Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyati mehnat unumdorligini tahlili va uni iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga ta’siri

Mahsulotning rentabelligini sotilgan barcha mahsulotlar bo’yicha va uning alohida turlari bo’yicha aniqlash mumkin. Birinchi holda u mahsulotni sotishdan olingan foydaning uni ishlab chiqarish va sotish xarajatlariga nisbati sifatida aniqlanadi. Sotilgan mahsulotlarning rentabelligi tovar mahsulotini sotishdan olingan foydaning mahsulotni sotishdan tushgan tushumga nisbati sifatida; balans foydasining mahsulotni sotishdan olingan foydaga nisbati bo’yicha; sof foydaning sotilgan mahsulotdan tushgan tushumga nisbati bo’yicha hisoblanadi.

Ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi balans foydasining asosiy ishlab chiqarish fondlari va moddiy aylanma mablag’larning o’rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida hisoblanadi. Bu ko’rsatkichni sof foyda bo’yicha ham hisoblash mumkin.

Korxona qo’yilmalarining rentabelligi uning ixtiyorida bo’lgan mulkning qiymati bo’yicha aniqlanadi. Hisoblashda balans va sof foyda ko’rsatkichlaridan foydalaniladi. Mulkning qiymati buxgalteriya balansi bo’yicha aniqlanadi. Bu ko’rsatkich korxona mulkning bir so’m qo’yilmalariga sotish darajasini ifodalaydi.

Korxona shaxsiy mablag’larining rentabelligi sof foydaning balans bo’yicha belgilangan, uning shaxsiy mablag’lariga nisbati bilan aniqlanadi.

Uzoq muddatli moliyaviy qo’yilmalarning rentabelligi qimmat-baho qog’ozlar va boshqa korxonalarda ulushli ishtirok etishdan daromadlar miqdorining uzoq muddatli moliyaviy kiritmalarning umumiy xajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

Aktsiyadorlik jamiyatida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish yo’nalishi bo’yicha ham tadbirlar ishlab chiqilgan bo’lib, bu tadbirlar boshqaruv strukturasi takomillashtirishga, boshqaruv faoliyatida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini va usullarini qo’llashga yo’naltirilgandir. Bunday tadbirlar kelgusida katta samara

berishi mumkin. Yuqorida berilgan nazariy taxlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

- boshqaruvni samarali mexanizmini tashkil etishda ichki va tashqi boshqaruv mexanizmlarini uyg'unlashtirgan holda tashkil etish;

- boshqaruvni samarali darajasi boshqaruv madaniyatini shakllanish darajasiga ham bog'liqligini o'rganish;

- zamonaviy boshqaruv samaradorligi ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog'liq bo'lib, uning samaradorligini ta'minlash ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratilishiga va menejerni tadbirkorlik faoliyatiga bog'liq;

- zamonaviy boshqaruv samaradorligi ko'p qirrali samaradorlik bo'lib, ishlab chiqarishni hamma yo'nalishlarini samaradorligini umumlashgan holda ifodalaydi;

zamonaviy boshqaruv samaradorligi mezonlari bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligi, ishlab chiqarish xajmi, ishlab chiqarish harajatlari darajasi, tashqi iqtisodiy aloqalar darajasi, qabul qilinayotgan qarorlarni asosiligi, ularni tezkorlik bilan amalga oshirilishi, korporativ boshqaruvni takomillashtirib borishi tashkil etadi.

Ushbu zamonaviy boshqaruv samaradorligi asosida "Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy salohiyatini baholash lozim bo'lib, buning uchun bir qator iqtisodiy nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash natijalarini aniqlash va tahlil etish talab etiladi.

10-jadval

"Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari

№	Iqtisodiy ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 y.ga nisbatan, % da
		2011 yil	2012 yil	2013 yil	
1.	Ishlab chiqarish mahsulot hajmi, ming so'm	26596202	27959359	28021815	105,4
2.	Daromad solig'ini to'langunga qadar foyda, ming so'm	1219048	1325934	1376319	112,9
3.	Korxona sof foydasi, ming so'm	1015147	1064988	1094697	105,4
4.	Samaradorlik, % 3q:1q	3,8	3,8	3,9	Q0,1

Manba: Uchqo'rg'on - yog'" OAJ ning 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Uchqo'rg'on - yog'" OAJda 2013 yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2011 yilga nisbatan 105,4 foizga o'sib, 28 mlrd. 21 mln. 815 ming so'mni tashkil etgan. Ushbu korxonada faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xodimlarning umumiy soni 2012 yilda 598 tani tashkil etgan bo'lib, asosiy faoliyat bilan 512 kishi shug'ullanadi.

Ishchi-xodimlarga to'lanadigan o'rtacha ish haqi ham Prezidentimiz farmonlari va Vazirlar mahkamasi tomonidan chiqarilgan qarorlar asosida oshirib borilmoqda. Shu bois birgina 2013 yilning o'zida ishchi-xodimlarga to'langan ish haqi fondi 3mlrd. 234 mln. 816ming so'mni tashkil etdi.

Hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan iqtisodiy islohotlarda belgilangan ustuvor vazifalarni "Uchqo'rg'on - yog'" OAJda amalda qo'llashi natijasida korxonaning sof foydasi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 105,4 foizga o'sib, 1094697 ming so'mga yetdi. Samaradorlik darajasi esa 0,1 foizga oshib, 3,9 foizni tashkil qildi.

11-jadval

"Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatida asosiy vositalar rentabelligi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2013 yilning 2012 yilga nisbatan o'zgarishi, %
1.	Asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati (ming so'm)	4912797	5159435	105,0
2.	Sof foyda (ming so'm)	1064988	1094697	102,8
3.	Asosiy vositalar rentabelligi %	21,7	21,2	

Manba: Uchqo'rg'on - yog'" ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, jamiyat asosiy vositalari qiymati joriy yilda 2012 yilga nisbatan 5,0 foizga oshib, 5 mlrd. 159 mln. 435 ming so'mga yetgan. Sof foydasi 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 2,8 foizga o'sgan. Ammo asosiy vositalar rentabelligi 0,5 foizga kamaygan bo'lib, bu o'z navbatida sof foydaning o'sishiga nisbatan asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati ko'proq o'sganligi bu esa yangi texnika va texnologiyalar bilan korxonani jihozlashda davom etayotganligidan dalolat beradi.

12-jadval**“Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida xarajatlar rentabelligi tahlili**

№	Ko’rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2013 yilning 2012 yilga nisbatan o’zgarishi, %
1.	Jami xarajatlarning yillik o’rtacha qiymati (ming so’m)	31418851	37329597	118,8
2.	Sof foyda (ming so’m)	1064988	1094697	102,8
3.	Xarajatlar rentabelligi %	3,4	2,9	

Manba: Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

“Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida yillik xarajatlar miqdori 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 18,8 foizga o’sgan bo’lib, 37 mlrd. 329 mln. 597 ming so’mga yetgan. Bunda xarajatlar jumladan, davr xarajatlari – 743 mln 174 ming so’m, ma’muriy xarajatlar – 312 mln. 36 ming so’m va boshqa xarajatlar miqdori – 431 mln. 137 ming so’mga oshib, xarajatlarni rejalashtirishda ayrim kamchiliklarga yo’l qo’yilganligi bilan izohlash mumkin. Buning natijasida xarajatlar rentabelligi ham 0,5 foizga kamaygan.

13-jadval**“Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida aktivlar rentabelligi tahlili**

TG’№	Ko’rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2013 yilning 2012 yilga nisbatan o’zgarishi, %
1.	Aktivlarning yillik o’rtacha qiymati (ming so’m)	10052456	11042957	109,9
2.	Soliqqa tortilgunga qadar foyda (ming so’m)	1325934	1376319	103,8
3.	Aktivlar rentabelligi %	13,2	12,5	

Manba: Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2011-2013 yillardagi hisobotlaridan olingan

jadval ma’lumotlariga ko’ra, jamiyat aktivlarining yillik o’rtacha o’zgarishi joriy yilda o’tgan 2012 yilga nisbatan 9,9 foizga o’sib, 11 mlrd. 42 mln. 957 ming so’mga teng bo’ldi. Soliqqa tortilgunga qadar korxona foydasi ham 3,8 foizga o’sib, 1 mlrd. 376 mln. 319 mitng so’mga yetdi. Biroq, aktivlar rentabelligi 0,7 foizga kamaygan. Bu esa “Uchqo’rg’on - yog’” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida aktivlardan imkon darajasida foydalanilmayotganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatda mahsulot ishlab chiqarishning ko'paytirishning asosiy yo'llaridan biri bu korxonada mehnat unumdorligini oshirishdir. Mehnat unumdorligi oshirish zahiralari - texnika va texnologiyani takomillashtirish, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etishini yaxshilash hisobiga mehnat unumdorligini oshirishning barcha omillaridan yanada to'laroq foydalanish imkoniyatini keltirib chiqaradi.

2.3. “Uchqo'rg'on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida mehnat unumdorligini oshirish va undagi muammolar

Ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Unumdorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida unumdorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo'lmasligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Ishlab chiqarish unumdorligini oshirishning juda ko'p, xilma-xil omillari va asosiy yo'nalishlar mavjud. Barcha omillar uch belgiga asosan guruhlariga bo'linishi mumkin: manba bo'yicha, ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha, omillarning o'rni va amalga oshirish darajasi bo'yicha.

Omillarni ishlab chiqarish unumdorligini oshirish manbalari bo'yicha tasniflash nimalar hisobiga ijtimoiy mehnatni tejashga erishish mumkinligini yoki erishilganligini aniqlashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, fond sig'imi hamda kapital mablag' talablikni kamaytirish, tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va vaqtni tejash. Lekin bunday tasniflash talabga javob bermaydi. Bu savollarga javob topish uchun ishlab chiqarish unumdorligini oshirishning barcha omillarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha guruhlash kerak.


Mehnat unumdorligini oshirishda zahiralarining bir necha tasniflari mavjud bo'lib, ularning hammasi ikkita katta guruhga bo'linadi: jonli mehnatdan (ish kuchidan) foydalanishni yaxshilash zahirolari va asosiy va aylanma fondlardan yanada samaraliroq foydalanish zahirolari. Birinchi guruxga mehnatni tashkil etish, mehnat sharoitlari, ishlovchilarning mehnat qilish qobiliyatini oshirish, kadrlar tarkibi va ularni joy joyiga qo'yish, uzluksiz ishlash uchun tashkiliy shartsharoitlar yaratib berish, shuningdek, xodimlarning mehnat natijalaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorligini oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalar kiritiladi.

Ikkinchi guruh asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashinalar, mexanizmlar, apparatlar va shu kabilar)dan yaxshiroq foydalanishi zahiralarini, shuningdek, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, yoqilg'i, energiya va boshqa aylanma fondlardan yanada tejamli va to'liq foydalanishni o'z ichiga oladi.

Zahiralar tushunchasiga ishlab chiqarishda ish vaqtining bekor sarf bo'lishi ham kiradi. Bular smena ichida va kun mobaynida bekor turishlar, ishga kechikib kelish va rejada ko'zda tutilmagan ishga kelmay qolishlarning barchasidir; mehnatning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan holda sarflanishi — mehnat qurollari va mehnat ashyolaridan oqilona foydalanmaslik hamda belgilangan texnologiya jarayonlarining buzilishi oqibatida mehnatning rejadagidan ortiqcha sarflanishidir.

Ular ijtimoiy mehnatni tejashga qaratilgan texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar kompleksidan iborat. Bu yo'nalishlar ishlab chiqarish tizimini yaxshilash, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik - iqtisodiy darajasini ko'tarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish muddatini qisqartirish g'oyatda xilma-xil bo'lib, ulardan eng muhimlarini quyidagi ko'rish mumkin.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amrimahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina hohish va istaklarning o'zigina yetarli emas. Buning uchun bir qator vazifalarni jumladan,



Manba: muallif ishlanmasi

4-rasm. Ijtimoiy mehnatni tejashga qaratilgan chora-tadbirlar

- birinchidan, fan-texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash;
- ikkinchidan, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslar (investitsiyalar) izlab topish;
- uchinchidan, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlamalarga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni o'rnatish;
- to'rtinchidan, o'z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti so'nggi paytlargacha evolyutsion ravishda rivojlanib kelmoqda edi. Asosiy e'tibor amaldagi texnologiyalarni takomillashtirish, mashina va uskunalarni qisman zamonaviylashtirishga qaratilgan edi. Bunday chora-tadbirlar ma'lum bir cheklangan natijalarga olib kelardi.

Yangi texnikalarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritishdan manfaatdorlik talab darajasida emasdi. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning xorijiy

progressiv texnologiyalari “ekspluatorlik belgisi” sifatida, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish esa ishsizlikning asosi sifatida qabul qilinardi. Xorij tajribalariga kapitalistik tajriba deb qaralardi hamda bu tajribalarning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmas edi.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitlarda, chuqur sifat o'zgarishlari, tamoyillari yangi texnologiyalar va so'nggi avlod texnikasiga o'tish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida qayta qurollantirish zarur. Shu bilan bir qatorda olimlar, konstruktorlar, muhandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada “Uchqo'rg'on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida ijodiy guruhlar, sifat guruhlari tashkil qilinmagan, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lmish universitetlar, ilmiy markaz va laboratoriyalar bilan aloqalar rivojlantirilmagan. “Uchqo'rg'on - yog” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni ma'lum darajada inson sog'ligi uchun zararli bo'lib, bugungi kunda bu jarayonga robotlarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining unumdorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida mavjud ishlab chiqarish salohiyati - asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya'ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Bozor sharoitlarida ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanish zaruriyati haqida qayta ta'kidlashga ehtiyoj yo'q:

- birinchidan, bozor bo'shliqni, harakatsizlikni, xo'jasizlikni va yo'qotishlarni kechirmaydi;

- ikkinchidan, o'z imkoniyatlari va resurslaridan yetarlicha foydalanmaydigan korxona istiqbolga ega bo'lmaydi hamda bankrotga uchrashga asos yaratadi. Shu sababli barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish va ayniqsa ishlab

chiqarishning barcha bo'g'inlarida tejamkorlikka rioya qilish har bir korxona faoliyatining muvaffaqiyat qozonishining garovi hisoblanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining unumdorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy omillar, jumladan, boshqaruv ham muhim o'ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish - konsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

“Uchqo'rg'on - yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyati faoliyati boshqaruvida boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirishning usul va shakllarini, ya'ni korxona faoliyatining butun xo'jalik mexanizmini takomillashtirilgani o'z ifodasini topmoqda. Korxona rahbarining ish stili va usullari fan-texnika taraqqiyoti hamda bozor iqtisodiyotiga mos kelishi ya'ni, korxona direktori bilimi, tajribasi va professional malakasiga ko'ra, oddiy xodimlar hamda bo'linma rahbarlaridan yuqori bo'lganligi bilan jamoani kerakli tarzda boshqarib muvaffaqiyatga erishib kelmoqda..

Rejalashtirishda rejalarning balanslashtirilishi, ko'rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida korxonadagi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalashtirish va iqtisodiy hisob-kitoblarni hamda zamonaviy kompyuter texnikasi va uning reja iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini yaxshi biluvchi, savodli va malakali iqtisodchilarni tanlashni talab qiladi. Bu borada “Uchqo'rg'on - yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida har bir ishchi va lavozimga tanlov asosida ishchi xodimlarni qabul qilinishi ishlab chiqarish unumdorligini oshishiga olib kelmoqda.

Korxona faoliyatining samarali bo'lishida ishlab chiqarishni intensivlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turi va sifatini oshirish hamda jahon standartlari darajasiga yetkazish, korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o'rinni egallaydi. Ammo “Uchqo'rg'on - yog'” ochiq aktsiyadorlik jamiyatida yangi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan

bo'lsada, mahsulotlar eksportida faqatgina sovun mahsuloti tapshqi bozorga chiqariladi xolos. Bunga sabab, qolgan boshqa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ichki bozorlarda aholi ehtiyojini qondiribgina kelmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishini erkinlashtirish va bu tarmoqda islohotlarni chuqurlashtirish unumdorlikni oshirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi unumdorligini oshirishning hal qiluvchi yo'llaridan yana biri fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdir. Texnik va texnologik omil mehnat unumdorligini o'stirishning kamida uchdan ikki qismini ta'minlaydi.

Ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida texnika taraqqiyotining xarakteri va mazmuni o'z xususiyatlariga ega bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida fan-texnika taraqqiyoti undagi miqdoriy o'zgarishlargagina emas, balki ko'proq sifat o'zgarishlariga qaratiladi. Umuman, unumdorlik iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liqdir, bu talab fan-texnika taraqqiyotiga ham to'liq joriy etiladi.

Sanoat ishlab chiqarishi ijtimoiy-iqtisodiy unumdorligini yuqori darajaga ko'tarishda inson omilining roli beqiyosdir. Insonlarning tashabbusi, kuch-g'ayrati, jonli ijodiyoti har qanday taraqqiyotning kudratli kuchi va eng muhim manbai hisoblanadi. Shu sababli ham insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi deb aytadilar. U barcha yangiliklarni, shu jumladan, yangi, ilg'or texnika-texnologiyalarni yaratadi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etadi, ilmiy va amaliy kashfiyotlar qiladi. Barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnati bilan harakatga keltiriladi, foydali narsalar hosil qilinadi.

Biroq inson faqat asosiy ishlab chiqaruvchi kuchgina emas, shu bilan birga ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti hamdir. Odamlar faoliyati shu munosabatlar orqali ruyobga chiqadi. Bu faoliyat yo'nalishi va natijalari xodimning o'z faoliyatida qanday o'y-fikrlarga, tasavvurlarga, maqsadlarga, hayotiy yo'l-yo'riqlarga, muddaolarga va psixologik e'tiqodlarga amal qilishiga bog'liq. Shu sababli inson omilining mohiyati, ahamiyati va mazmuni tahlil etilganda gap faqat inson haqidagina emas, balki avvalo inson yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi bilan

belgilanuvchi ijtimoiy sifatlar, faoliyatni rag'batlantiruvchi omillar va muddaolar haqida borishi kerak.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan omillarni amalga oshirish ma'lum bir resurslar va vaqt sarflashni talab qiladi. Biroq bu muammolarning mohiyati va ahamiyatini o'zgartirmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamon bilan hamnafas holda harakat qiluvchi, barcha faoliyat turlarida tejamkorlikka rioya etuvchi, o'z salohiyatidan unumliroq foydalanuvchi, zamonaviy fan va texnika yutuqlariga tayanuvchi korxona o'zining bugungi kundagi muvaffaqiyatlaridan tashqari, kelajakda ham muvaffaqiyatlarga erishishini, jumladan, bozordagi o'z o'rni va raqobatchilik muhitida qulay ahvolda bo'lishini ta'minlaydi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy resurslarni tejash maqsadida ko'p omillardan foydalanish mumkin. Resurslarni tejashning asosiy ishlab chiqarish – texnik omillariga ishlab chiqarishning texnik darajasini uzluksiz oshirish, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni yaxshilash, tejamkorlikni rag'batlantiruvchi dastak va stimullardan keng foydalanish kiradi.

Asosiy fondning aylanishini tezlashtirish juda katta xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. Chunki u pul mablag'larini bo'shatishga imkoniyat yaratadi.

Asosiy fondning aylanishini tezlashtirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish tsiklining davomiyligini, uzoqligini qisqartirish;
- normativdan tashqari, va oshiqcha zahiralarni yo'qotish;
- tayyor mahsulotlarni sotishni tezlashtirish va h.k.

III-bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mexnat resurslari bozori va mexnat resurslarini ijtimoiy tizimini shakllantirish istiqbollari.

3.1. Mexnat resurslari bozorini shakllanishini takomillashtirish yo'llari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mexnat bozori o'ziga xos xususiyatlarga ega. Odatda bozorda oldi-sotdi natijasida sotilgan narsaga nisbatan mulkka egalik o'zgaradi. Ammo bu xolatda, ya'ni mexnat bozorida ish kuchi egasida qoladi. U ma'lum vaqtda ishlab beradi, yoki ma'lum ishni bajarib beradi. Bu jarayon bir qarashda oddiy tuyulgan bilan aslida o'ta murakkab jarayondir. Shu tufayli har bir mamlakat o'ziga xos modelini ishlab chiqqan va shunga amal qiladi. O'zbekistonning mexnat bozori modeli ham bir jihatdan umumjaxon mexnat bozori modeliga o'xshasada, ikkinchi jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Mexnat bozori sub'ektlari (ish beruvchi ham, ish bajaruvchi ham), eng avvalo, o'z manfaatlaridan kelib chiqadi. Xech qaysisi bir-biriga tobe emas. Ish beruvchi ham, ishlovchi xodim ham bir-birini erkin tanlash xuquqiga ega.

2. Mexnat bozorida ish kuchining oldi-sotdi jarayonida ish beruvchi ham, ishlovchi xodim ham foyda ko'rishni ko'zda tutadi va natijada ikkalasi ham foydaga muvaffaq bo'ladi.

3. Mexnat bozorida ish beruvchi xaridor ham, ish bajaruvchi xodim ham bir-biri to'g'risida ishning borligi va bajarish uchun ish qilinishi kerakligi xususida axborotga ega, xolos. Ish kuchining soni va sifati to'g'risida uning soxibida xech qanday axborot yo'q. Shu tufayli uning narxi ish kuchiga emas, balki bajariladigan ish xajmiga qarab baxolanadi.

4. Ish kuchining qiymati bajarilgan ish bilan belgilanadi.

5. Mexnat unumdorligining oshishidan ish beruvchidan ko'ra ish bajaruvchining manfaati ko'proq. Ish beruvchiga sifat ahamiyatli, ish bajaruvchiga ishning sifati bilan birga soni ham ahamiyatlidir.

6. Ish beruvchi va ish bajaruvchi o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatida ekvivalent rolini ish xaqi (mexnat xaqi) o'ynaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, o'tish davriga mos, vaqtincha xarakterga ega bo'lgan O'zbekiston mexnat bozorining rivojlangan davlatlardan farq qiladigan tomonlari ham mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mexnat bozorida ishchi kuchi rivojlangan davlatlarga nisbatan arzon.
2. Malakasiz ishsizlar ko'pchilikni tashkil qiladi.
3. Ishsizlar asosan qishloq axolisini xisobidan ko'paymoqda.
4. Ishchi kuchiga taklif yetarli darajada rivojlanmagan, ish joylari yetishmaydi, shu sababli mexnat bozori ham to'la shakllanmagan.

Bu jixatlar O'zbekiston mexnat bozorining o'ziga xos xususiyatlarini tashkil qiladi. Albatta ushbu jixatlarning ayrimlari boshqa mamlakatlar mexnat bozori modelida ham bo'lishi tabiiy, ammo ushbu jarayonlarning ijtimoiy-mexnat munosabatlarida mexnatga oid qonunlar bilan qanday tartibga solinganligiga ham bog'liqdir.

Barcha bozorlardagi kabi mexnat bozorida ham erkin raqobat xukm suradi. Raqobat ish beruvchilar o'rtasida ish kuchini tanlashda va ish bajaruvchi xodimlar o'rtasida esa ish beruvchini tanlashda mavjud. Bularning ikkalasida ham bir xil vaziyat bo'lishi uchun ish kuchiga talab va ish kuchining taklifi o'rtasida muvozanat bo'lishi lozim. Talab va taklif o'rtasida muvozanat bo'lsa optimal ish xaqi belgilanadi. Agar taklif ko'p bo'lib talab oz bo'lsa ish xaqi albatta ish kuchi qiymatidan kam bo'ladi. Bordi-yu, ish kuchiga talab ko'p bo'lib ish kuchi kam bo'lsa ish xaqi yuqori bo'ladi.

Xozirgi o'tish davrida mamlakatimizning yangi iqtisodiy tizimi yetarli darajada shakllanmagan bir paytda ishchi kuchiga talab taklifga nisbatan kam bo'lmoqda. Natija ortiqcha ish kuchining mavjudligi, ishsizlikning ortib borish jarayoni ro'y berishi mumkin. Bu ijtimoiy axvolni yaxshilash uchun xukumatimiz bandlik masalani xal qilishga katta ahamiyat bermoqda.

Xozirgi vaqtda o'tish davri iqtisodiyotining oldida turgan dolzarb muammolardan biri mexnat bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mexnat bozori bozorning boshqa tizimlari bilan uzviy bog'langan. Xaqiqatdan ham talabga ega bo'lish uchun ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy

qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tadbiq eta turib, u o'z iste'mol sifatlarini yo'qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim. Nafaqat o'zini qayta ishlab chiqarish, balki mexnat resurslari va butun axolining sifat ko'rsatkichlarini xam yaxshilanishini oshirib yoki pasaytirib, ushbu tengsizlikni yo'q qilishi mumkin. Ishchi kuchiga jami talab - investitsiya va ishlab chiqarish xajmlari bilan tartibga solinadi.

Mexnat bozori – bu, mexnatga qobiliyatli axolining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni xamda ularning shaxsiy manfaatlarini xisobga oluvchi kontraktlar (mexnat kelishuvlari) asosida “mexnatga qobiliyatlarini” xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi xamda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Mexnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, baxosi va yollashdagi raqobat. Talab agrosanoat majmuasi, ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi va xalq xo'jaligining boshqa soxalarining mexnat bozoriga buyurtma etgan, ish xaqi fondi, shaxsiy yordamchi xo'jaliklardan daromadlar va boshqa xayotiy vositalar bilan ta'minlangan extiyojning xajmi va tarkibini aks ettiradi. Taklif yollanma sharti bilan ishga ega bo'lishdan manfaatdor bo'lgan qishloq ishchi kuchining miqdor va sifat (soni, jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbi, malakasi, millati, ishlab chiqishi, daromadi va boshqalar bo'yicha) tarkibini ifodalaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, “mexnat bozori” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni tarkibiy qismlarining tizimtik tadqiqoti mazkur bozorni o'tish davrida bajariladigan asosiy vazifalarni xam aniqlashga imkon beradi:

ishchi kuchiga talab va taklifning xajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;

bozor uslubida xo'jalik yuritishining iqtisodiy, ijtimoiy va xuquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;

mexnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish;

ishsizlar ish topishiga, ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga ko'maklashish;

ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mexnat taqsimotini o'zgartirish.

Mexnatning erkinligi va ixtiyoriyligi - mexnat bozori shakllanishining asosiy sharoiti yoxud shartidir.

Shu bilan bir qatorda mexnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy va xuquqiy shart-sharoitlar va omillar mavjudki, ularni biz quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Mexnat bozori (MB) shakllanishining asosiy iqtisodiy shart-sharoiti bo'lib, yollanma xodimlarni o'z ishchi kuchlariga nisbatan shaxsiy mulkchiliklari va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi. Bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur sub'ektlarni o'zaro almashuv munosabatiga kirishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, uning orqasida shaxsiy iste'molchilik yotadi. Ular xam o'z navbatida qayta takror ishlab chiqarishda axoli ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy ehtiyojining ifodalanishi bo'ladi.

MBining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyor erkin va teng xuquqli sheriklar iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqozo etadi. Bozorda yollanma xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazaridan o'zaro bog'langan xamda bir-birlariga qaram bo'lsalar xam bir-birlariga qarshi turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish MBining shakllanishida xal qiluvchi iqtisodiy shartlaridan biri xisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi - taklif qilingan mexnatga layoqatli axoli sonining unga talab miqdoriga nisbatan tez o'sishi.

Mexnat bozori kon'yukturasi shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari ichida yollanma xodimlar va ish beruvchilarning sifat ko'rsatkichlari oshishi yetakchi o'rin egallaydi.

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mexnat shartnomasi (kontrakt) mexnat bozorida ishchi kuchining sotish, sotib olishning xal qiluvchi xuquqiy shart-sharoiti xisoblanadi.

Ishchi kuchiga talab va taklif nisbati yaxshilanishiga tabiiy-iqlim sharoitlari muxim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqori unumdor qishloq xo'jaligi yerlarida va yetarlicha suv bilan ta'minlangan yashash joylarida ishchi kuchi ko'proq jamlanadi va ishchi joylari normal faoliyat ko'rsatadi. Yangi ish joylarini yaratish va ishlab turgan korxonalarni kengaytirish yo'li bilan ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga ma'lum darajada imkoniyatlar vujudga keltiriladi. Bu esa mexnat resurslarining ortiqchalik darajasini, demak, ishsizlik miqyosini xam keskin kamaytirishga bevosita ta'sir etadi.

Shu bilan birga ortiqcha mexnat resurslariga ega respublikamiz xududlarida ishchi kuchiga talabning oshishi va uning taklifi pasayishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish eng muxim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchiga talabning oshishini asoslovchi omillarga quyidagilar kiradi: noqishloq xo'jaligi tarmoqlarda yangi ish joylarini yaratish, mexnat qo'llaniladigan amaldagi mintaqalarni texnik qayta jixozlash, modernizatsiyalash, qayta ta'mirlash, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish, qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko'rsatish va shaxsiy mexnat faoliyati ko'lamini kengaytirish, kichik va o'rta biznes xamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar. Shu bilan bir vaqtda ishchi kuchi taklifini va ish joylariga extiyojni pasaytiruvchi omillar vujudga keladi va ular ta'sir qila boshlaydi: shaxsiy yordamchi xo'jalik, yakka mexnat faoliyati, xususiy tadbirkorlik va o'z-o'zini band qilishning boshqa soxalarini rivojlantirish, bandlikning egiluvchan va nostandart shakllarini kengaytirish, ishlab chiqarish va mexnatni tashkil qilishning bozor usullarini tatbiq

etish, inflyatsiya va ishsizlikni pasaytirish, maxalliy kadrlarning mobilligini (safarbarligini) xamda malakasini oshirish va boshqalar.

Mexnat resurslari bilan kam ta'minlangan xududlarda esa bir qator omillar ishchi kuchiga talabning pasayishiga ko'maklashadi. Xususan, bu ijara va xususiy mulkchilikni rivojlantirish, to'lash qobiliyatiga ega bo'lmagan yoki ekologik zararli korxonalarni yopish, yangi yerlarni o'zlashtirish ko'lamini qisqartirish, moddiy-texnikaviy va moliyaviy resurslar ta'minotini yaxshilash, intensiv texnologiyani qo'llash, mexnat unumdorligini oshirish va xokazo. Bundan tashqari, mazkur xududlarda ishchi kuchi taklifini oshiruvchi omillar mavjud: kadrlarning malakasi, ma'lumoti, mobillik va eksportabellik darajasining pastligi, mexnat resurslari soni o'sish sur'atining ish joylari miqdoriga nisbatan yuqoriligi, qishloq xo'jaligida ishlovchilarni ish joyidan ozod etishning ko'payishi, mexnatni qo'llash mintaqalarining yetishmasligi va boshqalar.

Mexnat bozorida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida axolining ish bilan bandligi va mexnat sharoitlarini belgilash, u yoki bu ijtimoiy muammolarni xal qilish, ijtimoiy - mexnat mojarolarini bartaraf etish bo'yicha ish beruvchilar bilan yollanma xodimlar o'rtasidagi munosabatlar markaziy o'rin egallaydi. Mexnat bozorida mazkur munosabatlar jamoaviy, shaxsiy va xududiy usullar asosida tartibga solinadi. Jamoaviy bitimlar tuzilayotganda O'zbekiston Respublikasining «Mexnat Kodeksi», Xalqaro Mexnat Tashkilotining Konventsiyasi va tavsiyalariga asoslaniladi. Xalqaro Mexnat Tashkilotining Konventsiyasida (54-bandida) ta'kidlanganidek, “Jamoaviy muzokaralar, bir tomondan, tadbirlar, tadbirkorlar guruxi bilan, boshqa tomondan esa, mexnatkashlarning bitta yoki bir necha tashkiloti o'rtasida:

a) mexnat sharoiti va bandlikni belgilash;

b) tadbirkorlar va mexnatkashlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

v) tadbirkorlar yoki ularning tashkilotlari va mexnatkashlarning tashkiloti yoki tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadlarida olib boriladigan barcha muzokaralarni bildiradi”.

Mexnat bozorida bunday tartibga solishni qo'llanishning eng muxim afzalligi shundaki, unda qabul qilinadigan qarorlar nixoyatda qayishqoq (egiluvchan, moslashuvchan) bo'ladi, ularni na qonunchilik, na sud va na ma'muriy usullarga qiyoslab bo'lmaydi.

Xodim bilan tuzilgan shaxsiy shartnoma ish beruvchisi uchun ancha foydalidir. Shaxsiy shartnoma tizimi mexnatchining mexnat sharoiti va unga to'lanadigan ish xaqini shu odamga qarab belgilash imkonini beradi. Jamoaviy bitimlarga ko'ra esa, bunday qilib bo'lmaydi. Shu bilan birga, tuziladigan shaxsiy bitim ko'p xollarda mexnatkashlarni ijtimoiy kafolatlarining kattagina qismidan maxrum etadi.

3.2. Mexnat bozori infratuzilmasi rivojlanish mezonlarini takomillashtirish va xududiy axborot tizimlarini joriy etish

Mexnat bozorida xududiy axborot tizimlarini joriy etish iqtisodiyotning axborot sektorini intensiv rivojlantirish jarayonini qamrab oladi. Shuning uchun xududiy darajada iqtisodiyotni axborotlashtirishning shakllanish belgisi xisoblanadi.

Albatta, xududiy mexnat bozorida axborot tizimlarining yaratilishi, avvalambor, maxalliy elektron, kom pyuter texnikalari ishlab chiqarishni rivojlantirishni talab etadi. Maxalliy elektron sanoatining rivojlanishi mexnat bozorida axborot tizimlari shakllanishi uchun zarur jixozlarni ta'minlaydi.

Mexnat bozorida axborotlashtirish quyidagi vazifalarni amalga oshirishini nazarda tutadi:

mexnat bozorini axborotlashtirishga tayyorlashning tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ya'ni bu muammoni xal etish uchun zarur siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy mutaxassislar tayyorlash va boshqa shu kabi shart-sharoitlarni yaratish;

axolining kom pyuter savodxonligini ta'minlash, yangicha fikrlash va axborot madaniyatini shakllantirish;

xo'jalik mexanizmini takomillashtirish, tashkiliy tuzilmalar, boshqaruv tartibotlarini qayta qurish, axborotlashtirish industriyasining xo'jalik mexanizmini vujudga keltirish, axborotlashtirishning xuquqlarini ishlab chiqish;

mexnat bozorida axborotlarni qabul qilib olish va tarqatish umumdavlat muxitini rivojlantirish;

matematik va dasturiy ta'minot ishlab chiqish, ma'lumotlar banklarini va bilimlarning manbalarini vujudga keltirish;

axborotlashtirish soxasida samarali xalqaro xamkorlik qilish yuzasidan keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish.

Mexnat bozori xududiy axborot tizimi ish bilan bandlik va mexnat soxasida fuqarolarni o'z-o'zini ximoyalashning qo'llab-quvvatlashini o'z ichiga oluvchi xuquq va majburiyatlar xaqidagi axborotlarni saqlash, normativ aktlar va ularni mustaxkamlash xaqida, ularning ijrosini ta'minlash, ijtimoiy-xuquqiy maslaxatlar va ijtimoiy-mexnat muammolarining yechimi uchun zaruriy ma'lumotlarni ta'minlashi kerak.

Xududiy axborot tizimining zaruriy-tuzilmaviy elementlari bo'lib, xududda kadrlar tayyorlash tizimi xaqidagi, mavjud davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmati organlari xaqida, ish beruvchilar, ularning asosiy tavsifi va rivojlanish tendentsiyalari xaqidagi ma'lumotlar bazasi xisoblanadi. Bunda jamoat ishlarini loyixalari saqlanishi xam kiradi.

Tarkibiy o'zgarishlar sharoitida ish bilan bandlik siyosatining asosiy vositalaridan biri ishsizlarga ixtisos berishdir. Ishsizlarga ixtisoslik berish va ularni ishga joylashtirishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqiladigan maxsus dasturlar xududiy axborot tizimlari ko'magi bilan xududiy ish bilan bandlik xizmati organlari yordamiga muxtoj bo'lgan va mexnat bozorida kam raqobatli bo'lgan ishsizlar kategoriyasini aniqlash imkoniyatini tezlashtiradi. Mexnat bozori xududiy axborot tizimida to'plangan ishonchli va to'liq axborotlar bunday ishsizlik muammolarini yechishning eng samarali yondashuvlari asosida xal etish uchun imkoniyat yaratadi.

Xozirgi kunda mexnat bozori axborot tizimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri dasturiy va kommunikatsion jixatlarni takomillashtirishdir. Dasturiy jixat dasturlashning avtomatlashtirilgan texnologiyasini, matnli, tavsirli va ovozli axborotni qidirish xam o'zgartirish uchun dastur bilan ta'minlashni,

ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari, ekspert tizimlari va sun'iy intellekt, dasturlash tillari, qarorlar qabul qilishni qo'llab quvvatlashning universal tizimlarini, ma'lumotning tashqi bazalarida axborotni tezkor qidirish, so'rov tillari, statistik paket, matnni qayta ishlash uchun dastur bilan ta'minlashni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kommunikatsion jixat diqqat e'tiborni quyidagi komponentlarni: teleanjuman aloqa, elektron pochta, faks axborotini o'zlatish, maxalliy ahamiyatga molik tarmoqlar, nutqli pochta, yalpi va mintaqaviy tarmoqlarni rivojlantirishga qaratishi lozim.

Iqtisodiyotda xususiy sektor rolining kengayishi bilan aloqadorlikda ishga joylashtirishga ko'maklashish bo'yicha agentliklar, nodavlat ixtisoslashgan mexnat birjalari va xususiy vositachi firmalarning yaratilishi xamda faoliyatlari davomida maqsadga muvofiq ravishda mexnat bozori yagona axborot tizimidan foydalanish xuquqi beriladi. Xaqiqatdan xam, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmati organlari ma'lumotlar bankining shakllanishida qo'shma xamkorlik xududiy mexnat bozorida jarayonlar tezlashishining mutanosibligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, mexnat bozorida talab va taklifni tartibga solish bo'yicha xududiy axborot tizimlarini yaratilishi bozor aloqalarini shakllantirish, mexnat bozorida xo'jalik sub'ektlari transaksion xarajatlarini kamaytirish, tarmoqlar bo'yicha ishchi kuchi taqsimlanishini optimallashtirish maqsadida, ular o'rtasida intensiv aloqalarni qaror toptirish shart-sharoitlarini vujudga keltiradi.

Ishchi kuchining qayta taqsimlanishi, uning mexnat bozoridagi xarakatiga, binobarin, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi miqdor-sifat jixatidan muvofiqlikka erishish ko'lamlariga bevosita ta'sir etuvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangicha sharoitlarini shakllantiradigan makroomillarga bog'liq. Shuning uchun xam ishsizlik miqyosining xaddan tashqari oshib ketishining oldini olish va ishsizlarni ishga joylashtirishga yordam berish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim:

mexnat munosabatlari soxasida ijtimoiy xamkorlikning uch tomonlama mexanizmini takomillashtirish;

mamlakatning xar bir xududida mexnat zaxiralari va ish joylari sonining xam sifat, xam soni jixatidan o'sish mutanosibligiga erishish;

yangi taraqqiy etgan tarmoqlar va faoliyat turlarini rivojlantirish yo'li bilan yangi ish joylarini barpo etish. Bu tadbirlarni amalga oshirishda qishloq xo'jaligidan bo'shayotgan xodimlarni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga, jumladan sanoat, kichik va xususiy biznes, xizmat ko'rsatish va boshqa soxalarga taqsimlashga axamiyat berish kerak bo'ladi;

ish bilan bandlikning tarmoq va professional tarkibini takomillashtirish, qishlok joylarida ishsizlik miqyosining oshib ketishini oldini olish va nixoyat yalpi maxsulotning ko'payishi uchun zamin yaratadi;

iqtisodiyotda oqilona ish bilan bandlikni ta'minlash;

mexnat bozorida raqobat mexanizmini yo'lga qo'yish samaradorligini oshirish, ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini to'xtovsiz oshirib borish mazkur mexanizmning asosi bo'lib xisoblanadi;

samarali va "egiluvchan" mexnat bozorini shakllantirish, yangi mexnat bozori infratuzilmasining faoliyatini takomillashtirish, xodimlarning kasbiy xarakatchanligini oshirish, xamda mexnat bozorining aloxida segmentlariga ta'sir ko'rsatish orqali ishsizlarda yangi kasblarga qiziqish uyg'otish;

mexnat bozorida faol siyosat olib borish borasidagi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish, jamoat ishlari tarmog'ini kengaytirish, ishsizlarni o'qitish va qayta o'qitish tizimini va yangi ish joylarini barpo etish;

yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish chora tadbirlarini ishlab chiqish.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida mexnatga bo'lgan talabni rag'batlantirishning birdan-bir vositasi investitsiyalar samaradorligini ta'minlashdir. Mexnatga bo'lgan talabning navbatdagi omili o'zaro bir-birini to'ldiradigan mexnat resurslari bilan bog'liqdir. Agar bitta stanokni xodim boshqarsa va bu xildagi stanoklar narxi oshsa, u xolda bu stanoklarda ishlaydigan ishchilarga talab boshqa teng sharoitlarda pasayadi va aksincha bo'ladi. Tashkiliy jixatdan mexnat bozori ijtimoiy institutlar tizimi sifatida maydonga chiqar ekan, mazkur bozor infratuzilmasi rivojlanishi axolining oqilona ish bilan bandligini shakllanishida

muxim tashkiliy tuzilmalar majmui xisoblanadi. Mexnat bozori infratuzilmasi rivojlanishining asosiy maqsadlari mexnatdan foydalanish muammolari, uning samaradorligini oshirish bilan bog'liqdir.

Amaliyotda axolining oqilona ish bilan bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishishni bildiradi. Bunday xolda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi. Bunday muvozanat ish beruvchilar va "mexnat qobiliyati" kishilarining iqtisodiy manfaatlarini eng muqobil darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga kasbiy malaka tayyorgarligi bo'yicha mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli, axolining oqilona ish bilan bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchining qiymati asosida "mexnat qilish qobiliyati"ni bozorda sotish uchun taklif qilganlarning turmush darajasi shakllanishi xam ta'minlanadi⁵.

5-rasm

Axoli bandligini ta'minlashning takomillashtirilgan yangi mexanizmi



Manba: Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan xolda muallif ishlanmasi

⁵ Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mexnat bozorining shakllanishi va rivojlanishini modellashtirish // Dis. ... i.f.d. - T.: 1998. -60 b.

Mexnat bozorining mexnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmini takomillashmaganligi mexnat bozori infratuzilmasi rivojlanishiga va buning natijasi o'laroq axolining oqilona ish bilan bandligini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axolining oqilona ish bilan bandligini ta'minlashning takomillashtirilgan yangi mexanizmi quyidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim.

O'zbekistonda zamonaviy mexnat bozori xali tarkib topish jarayonidadir. U xali mezon asosida o'zining yaqqol qiyofasiga ega bo'lib ulgurganicha yo'q. Bu jixatdan uni birinchi turga intiluvchi aralash mexnat bozori deb atash mumkin. Mazkur bozorning shu jixatlarini e'tiborga olgan xolda uning infratuzilmasi rivojlanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jixatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; mexnat bozorining sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash; axolining ish bilan bandligiga oid axborotlar tizimini takomillashtirish; kadrlarning kasbiy xarakatchanligi va eksportabelligini rivojlantirish; ishsizlikni kamaytirish; malakali mexnat bozorini shakllantirish va boshqalar.

3.3. Mexnat resurslaridan samarali foydalanishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish istiqbollari.

Mulkchilikning turli shakllarini vujudga kelishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirilishiga va axolining daromadlarini ko'payishi, o'tish davrining o'ziga xos tomonlaridandir. Shunday bo'lsada iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida bir qator muammolar xam rivoj topadi. Jumladan, ishsizlik, inflyatsiya, g'irrom raqobat, korruptsiya, ijtimoiy tabaqalashuv kabilardir. Mazkur muammolarni xal etish esa o'z navbatida prezidentimiz I.A.Karimovning oqilona siyosatida uzil-kesil xal etilib kelinmoqda. Mamlakatimiz tarix uchun qisqa bo'lgan vaqt oralig'ida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy, sport va boshqa ko'plab soxalarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotganligi fikrimizni isbotidir. Jaxon mamlakatlari ichida respublikamizda inson omili uchun juda katta axamiyat qaratilib, bunga bir qancha kuch-g'ayrat va investitsiyalar sarflanmoqda. Yurtimizda fan, maorif, ta'lim,

san`at, sport soxalarida ko`plab xalqaro miqyosda o`z o`rniga ega bo`lib kelmoqda. Masalan, 140 dan ortiq mamlakatlar orasida O`zbekiston ta`lim tizimi bo`yicha 2-o`rinda turishi yurtimizda intellektual salohiyatga ega bo`lgan yoshlarning kun sayin qo`lga kiritib borayotgan yutuqlarida o`z ifodasini topmoqda. Mamlakatimizda mexnat resurslarining ortib borishi va mexnatga layoqatli bo`lganlarning asosiy qismini yoshlar egallaganligi, bevosita davlat tomonidan mazkur qatlamni qo`llab-quvvatlashni taqozo etadi. Bu borada puxta ishlab chiqilgan kontseptsiyaga zaruriyat seziladi. Bunday kontsepsiya bizda mavjud bo`lib, u o`zining ijobiy natijasini xam berib kelmoqda desak mubolag`a bo`lmaydi.

Mexnat resurslaridan samarali foydalanishning davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish istiqbollari birinchi galda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivoji belan bevosita bog`liqdir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlariga kredit berishni ko`paytirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2011 yil 11 martda imzolangan PQ-1501-sonli Qarori, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muxitini shakllantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2011 yil 24 avgustda chiqarilgan PF-4354-sonli Farmoni va boshqa bir qator me`yoriy-xuquqiy xujjatlarga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berildi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirildi.

Xususan:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining kreditlar ajratish xaqidagi arizalarini ko`rib chiqish muddati uch bank ish kunidan oshmaydigan muddat qilib belgilandi;

tijorat banklariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta`minotini rasmiylashtirish bilan bog`liq xarajatlarni xisobga olish xuquqi berildi;

kichik biznes sub`ektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada xisob varaq ochgani uchun to'lov undirish bekor qilindi;


imtiyozli kreditlash xajmini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari xisobidan kreditlar ajratishdan oladigan daromadlari 2016 yilning 1 yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilindi.

Bunga asosan, joriy yilda Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari xisobidan kreditlar 1,3 barobarga ko'paytirilib, ularning xajmini 24 milliard so'mdan oshirish choralari ko'rildi. Ushbu kreditlar asosan uzoq va chekka, shuningdek, ortiqcha mehnat resurslariga ega bo'lgan tuman va shaxarlarda joylashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining loyixalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Olib borilgan salmoqli ishlar natijasida 2011 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlariga ajratilgan kreditlar xajmi so'nggi yillarda qariyb 1,5 barobar oshib, 4,0 trillion so'mni tashkil etdi va mazkur mablag'lar xisobiga xududlarda 291 mingtadan ortiq yangi ish o'rini yaratildi.

6-rasm.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kreditlar, (milliard so'm).



Manba: “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.

yuqoridagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar xajmi 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 2,2 barobar, 2010 yilga nisbatan 1,5 barobar oshib, 2012 yilning 1 yanvar xolatiga ko'ra 4,1 trillion so'mni tashkil etdi.

Ajratilgan mikrokreditlar xajmi 752,3 milliard so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich 1,5 barobar o'sdi.

Mamlakatimizda mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ularni ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, qayta tiklash, texnik va texnologik jixatdan modernizatsiya qilish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va keyinchalik ushbu korxonalarni strategik investorlarga sotish borasida xam banklar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirildi.

2008 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» PF-4053-sonli Farmoni, 2009 yil 19 noyabrda esa «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi» F-4010-sonli Farmoyishi qabul qilindi. Bu muxim xujjatlar bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo'shimcha investitsiya kiritish, ana shunday korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi turdagi maxsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o'rinlarini qayta tiklash va yangi ish o'rinlarini yaratishni ko'zda tutadi.

Tijorat banklari balansiga olingan iqtisodiy nochor korxonalarni tiklash, ular bazasida yangi tashkil etilgan korxonalarni saloxiyatli investorlarga sotish ishlari samarali amalga oshirib kelinmoqda.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2012 yilning 1 yanvar xolatiga ko'ra tijorat banklari balansiga qabul qilingan jami 164 ta iqtisodiy nochor

korxonalardan 156 tasining faoliyati qayta tiklanib, 110 tasi 851,6 milliard so'mga yangi mulkdorlarga sotildi.

Tijorat banklari tomonidan mazkur korxonalarni texnik qayta jixozlash va modernizatsiya qilish ishlariga 275 milliard so'm miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ortiq yangi ish o'rini yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan korxonalar tomonidan 1 trillion so'mdan ziyod maxsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 320 million AQSh dollaridan ko'p maxsulotlar eksport qilindi. Bugungi kunda tijorat banklarining tasarufida qolgan 54 ta korxonadan 46 tasida ishlab chiqarish faoliyati to'liq tiklangan bo'lsa, 8 ta korxonada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, texnologik liniyalarni tiklash, qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

O'z o'rnida mexnat resurslarining katta qismi qishloq xo'jaligida bandligini xisobga olgan holda, mazkur soxa vakillarini o'rni xaqida to'xtalmay o'tish mumkin emas.

2011 yilda mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotining 17,1 foizi qishloq xo'jaligi xissasiga to'g'ri keldi. Agrar tarmoq mexnat resurslarining salmoqli qismini ish o'rinlari bilan ta'minlab kelmoqda. Shu jixatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muxim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mustaqillik yillarida muxtaram Prezidentimizning tashabbusi va bevosita raxnomoligida qishloq xo'jaligini islox qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. Cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mexnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Xizmatlar soxasi xalq xo'jaligi majmuining tarkibiy qismi bo'lib iqtisodiy munosabatlar umumiy tizimi tarkibiga kiradi va jamiyatdagi mavjud iqtisodiy qonunlarga bo'ysunadi. Xozirgi kunda tarmoqlarning xalqaro tasnifida ular uch sektorga bo'linadi: birlamchi (qishloq xo'jaligi, qazib olish sanoati), ikkilamchi (qayta ishlash sanoati) va uchlamchi (xizmatlar soxasi yoki ijtimoiy soxa).

Bugungi kunga kelib, iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar soxasining chegaralari to'g'risida turli fikrlar mavjud. Jumladan, ushbu soxaga maishiy xizmatlar, yo'lovchi transporti xizmatlari, aloqa xizmatlari, turar joy kommunal xizmatlari, ta'lim, madaniyat, sanatoriya-sog'lomlashtirish, xuquq soxasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalari bir-biriga o'xshash xizmatlar kiradi.

Xulosa

Turli mamlakatlar rivojlanishining tarixiy tajribasi ko'p martalab shuni isbot qildiki, sanoat korxonalarini boshqarishda quruq ma'muriyatchilik yoki buyruqbozlik yo'lini tutish tanazzulga, xalqning qashshoqlashuviga va ishlab chiqarishning inqiroziga olib keladi. Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot sanoat rivojini vayron qiluvchi, sanoat mollari maxsulotini sotib olinish narxlarini past xolda va sanoat ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan narxlarini baland xolda ushlab turish evaziga mablag'larni ishlab chiqarish daromadining bir qismini xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga oshkora yoki yashirin tarzda o'tkazishga imkon beruvchi iqtisodiyot bo'lib xisoblanadi.

Motivatsiya va mexnat – tarixan qonuniy ijtimoiy iqtisodiy va axloqiy – psixologik xodisa. U insonni shunday imkoniyatlarini ishga solishga undaydigan iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va psixologik shart-sharoitlar kompleksi bilan xarakterlanadiki, bu xarakterlar pirovardida xar bir jamiyat oldida turgan muayyan vazifalarni muvaffaqiyatli xal etishni ta'minlay oladigan bo'lardi.

Ko'p ukkladli iqtisodiyot sharoitida mexnat resurslari bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mexnat, xalq xo'jaligining mexnat resurslariga nisbatan muvozanatlashtirilganligi tubdan o'zgardi.

Ishchi-xodimlar sonini optimallashtirish ob'ektiv mezon sifatida shuni taqozo etadiki, ijtimoiy tizimdan qat'iy nazar ishchi-xodimlar soni xar doim ishlab chiqarish extiyojiga muvofiq muvofiq kelishi kerak.

Ish joyi ijtimoiy – iqtisodiy mezon sifatida namoyon bo'lar ekan, tarmoqqa oid va xududiy rejalashtirish o'rtasidagi, u yoki bu resurslarga bo'lgan extiyojlari shakllanishining vertikal jarayoni va qishloq resurslari shakllanishining gorizontal jarayoni o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga solishda muxim rol o'ynaydi.

Mulkchilikning turli shakllariga o'tish mexnat resurslaridan samarali foydalanganlik uchun javobgarlikning mexnat bozori barcha qatnashchilari – davlat, ishchi-xodim va ishlab chiqarish beruvchi o'rtasida bo'linishini taqozo etadi.

Yangi shart-sharoitda davlatning roli sezilarli darajada murakkablashib bormoqda, ya'ni mexnat bozoridagi o'zgarishlar davlat tomonidan tarkibiy, ilmiy-texnik, mintaqaviy siyosat o'tkazishdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarga o'z vaqtida ta'sir ko'rsatish uchun istiqbolni belgilashning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Shuni qayd etib o'tish lozimki, davlat, kasaba uyushmalari, ishlab chiqarish beruvchilar, maxalliy xokimiyat idoralarining birgalikda, kelishib olib borgan say'i xarakatlarigina axolining to'la va samarali bandligini ta'minlashda muvaffaqiyatchilarga erishish imkonini beradi.

Ko'p ukladli iqtisodiyot past malakali kadrlar ishsizligini oshiradi. Shuni xisobga olgan xolda ularni boshqa kasbga tayyorlash va yo'naltirish masalasini aloxida ko'rib chiqish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashining butun tizimini qayta qurish zaruriyati tug'iladi.

Axoli bandligi muammosini, bozorlarni erkinlashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, moliyaviy muvozanatga erishish va xokazolar kabi iqtisodiyotni joriy boshqarish dastaklari va joriy ijtimoiy muammolarni yechish bilan emas, balki qishloqni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning davlat istiqbollari, dastur va rejaları, axolining turmush darajasi va sifatiga oid davlat andozalarini (minimal "iste'mol savatchasi", xayot kechirishning minimal darajasiga mos keluvchi minimal ish xaqi) aniqlovchi me'yorlar tizimini amalga oshirishini o'z ichiga oluvchi istiqbol maqsadli dasturlarini qabul qilish orqali yechish lozim.

Sanoat majmui turli tarmoqlari va mintaqalarning ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik darajasi xaqidagi yanada to'liqroq va aniqroq ma'lumotni xududiy tarmoq balanslarini tuzish orqali olish mumkin. Ularda demografik saloxiyat, ishchi kuchining jamlangan zaxirasi, ishlab chiqarish joylari to'plamining mavjudligi baxosi beriladi xamda ularning mintaqa sanoat majmui barcha tarmoq va soxalarida amal qilishi bo'yicha ijtimoi zarur darajasi baxolanadi.

Qishloq xo'jaligining qayta ishlovchi korxonalar va unga xizmat ko'rsatuvchi agrosanoat majmui tarmoqlari bilan kooperatsiyalashuvi va integratsiyalashuvi, qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarida ishlab chiqarishini jadallashtirish, qishloq ijtimoiy – maishiy infratuzilmasini rivojlantirish mexnat mavsumiyligidan xalos bo'lish va bandlik darajasini oshishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Huquqiy me'yoriy hujjatlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003 yil. 40 b.
- 1.1.2. O'zbekiston Respublikasining “Er to'g'risida”gi Qonuni. T., 1998 yil.
- 1.1.3. O'zbekiston Respublikasining “Mulk to'g'risida”gi Qonuni. T., 1998 yil
- 1.1.4. “Xususiy korxonalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Qonun va qarorlar. – T.: O'zbekiston, 2004, №3.
- 1.1.5. «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (o'zgartishlar kiritilgan). O'zbekiston Respublikasining Yangi qonunlari, 25-son. –T.: Adolat, 2004.
- 1.1.6. “Investitsiya faoliyati to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Qonun va qarorlar. –T.: №25, O'zbekiston, 2004.
- 1.1.7. «Mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida»gi O'zbekiston respublikasining Qonuni (o'zgartishlar kiritilgan). O'zbekiston Respublikasining Yangi Qonunlari, 25-son. - T.: Adolat, 2004.
- 1.1.8. «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1-tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.
- 1.1.9. «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1-tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.
- 1.1.10. «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1 tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

- 1.2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1717-sonli «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi. 2012 yil 27 fevral .

1.2.2. 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-1442., 15.12.2010 y.

1.2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1675-sonli Qarori.

1.2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1449-sonli Qarori.

1.2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martda imzolangan PQ-1501-sonli Qarori.

1.2.6. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbiarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 24 avgustda chiqarilgan PF-4354-sonli Farmoni

1.2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 mayda "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 may.

1.2.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil 12 maydagi Qarori. // Xalq so'zi, 2011 yil 13 may.

1.2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi 2011 yil 7 fevraldagi Qarori.

1.2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi PQ-1501-sonli Qarori.

1.2.11. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. // Xalq so'zi, 11 aprel 2012y.

1.2.12. “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010- 9 mart.

1.2.13. «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2008 yil 28 noyabr) // Xalq so'zi, 2008 yil 29 noyabr .

1.2.14. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi, 2005 yil 12 aprel.

1.2.15. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi, 2005 yil 15 iyun.

1.2.16. «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi, 2003 yil 7 may.

1.2.17. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 15.06.2005y.

1.2.18. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan “O vajneyshix napravleniyax uglubleniya reform v sel skom xozyaystve”. 24 marta 2003 goda.

1.2.19. “2004–2006 yillarda fermer xo’jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2003 yil 27 oktyabr, PF-3342. O’zbekiston Respublikasi Qonunlar to’plami. 2003 yil, №20.

1.2.20. “Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag’batlantirish chora tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2002 yil 28 avgust.

1.3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1.3.1. “Qishloqni lizing sharoitlarida qishloq xo’jaligi texnikasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2000 yil 2 noyabr, № 424. O’zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. 16-ilova, 2000y. 32-88-b.

1.3.2. “Davlat ehtiyojlari uchun harid qilinayotgan qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirishni mablag’ bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2002 yil 7 noyabr, №383.

1.3.3. Paxta xom ashyosi yetishtirishda bozor printsiplarini amalga oshirish va uni yetishtirishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida. 2003 yil 19 fevral, №93.

1.3.4. “2004–2006 yillarda fermer xo’jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2003 yil 30 oktyabr, №476.

1.4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti

asarlari va ma’ruzalari

1.5.1. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari–T:«O’zbekiston»,1998–686 b.

1.5.2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T-7.- T.: «O’zbekiston», 1999 y. – 410 b.

1.5.3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T-8.– T.: «O’zbekiston», 2000 y. – 528 b.

1.5.4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. T-9. – T.: «O’zbekiston», 2001 y.- 432 b.

1.5.5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.T-10. – T.: O’zbekiston. 2002 y.-432 b.

1.5.6. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimizga va qat'iy irodamizga bog'liq. T-12.-T.: 2004 y. – 400 b.

1.5.7. Karimov I.A. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995y., –75 b.

1.5.8. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorik bilan foydalanish – bosh yo'limiz. 2001 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohotlarni borishini baholash hamda 2002 yilgi vazifalarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida so'zlagan nutq. “Qishloq hayoti” ro'znomasi, 2002 yil 15 fevral.

1.5.9. I.A.Karimov. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil birinchi yarim yilligida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish yuzasidan ustivor vazifalar va topshiriqlarning bajarilishi hamda dolzarb muammolarning hal etilishi to'g'risidagi majlisida so'zlagan nutqi. “O'zbekiston ovozi” gazetasi, 2002 yil, 20 iyul, 2-bet.

1.5.10. Prezident Islom Karimovning 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent sh., 2003y. 17 fevral.

1.5.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning viloyat, shahar, tumanlar hokimlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. “Xalq so'zi”, 1998 y. dekabr.

1.5.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'n ikkinchi chaqiriq X sessiyasida so'zlagan nutqi. - T., 1999.

1.5.13. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi . 2009 yil 14 fevral , № 33-34 (4696-4697)

1.5.14. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.G'G'Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar .

1.5.15. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi (O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza), "Xalq so'zi", 2010 yil 12 noyabr (№ 220),

1.5.16. Karimov I.A.«Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutq G'G' Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral .

1.5.17. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: "O'zbekiston", 2012. – 36 b.

1.5.18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2013

1.5.19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2014

2 Kitob va turkum nashrlari

2.1.1. Galeev I.B. Povo'shenie effektivnosti proizvodstva v xlopkoseyuhix kolxozax. – T.: «Fan», 1974. – 157 b.

2.1.2. Golovanov A.A. Stimulirovanie snijeniya sebestoimosti sel skoxozyaystvennoy produktsii. - M.: «Agropromizdat», 1985. –80 b.

2.1.3. Mamarasulov U.M. Iqtisodiyot va bozor munosabatlari. - T.: «Navro'z», 1996. – 448 b.

2.1.4. Murakaev M. Ishchi kuchidan foydalanish rezervlari. – T.: O'zbekiston, 1982. – 40 b.

2.1.5. Mashenkov V.F. Proizvoditel nost truda v sel skom xozyaystve. M.: «Kolos», 1974. – 222 b.

2.1.6. Mirrahimova X.M. Mehnatni tashkil qilish va paxtani tannarxini kamaytirish. - T.: O'zbekiston, 1971. – 48 b.

2.1.7. Nazarov R. Amerika paxtachiligi. –T.: «Mehnat», 1992.- 24 b.

2.1.8. Ratgauz. M.G. Stimulirovanie proizvodstva i truda v sel skom xozyaystve. - M.: «Ekonomika», 1982. – 126 b.

- 2.1.9. Togoev I.N. *Ekonomiya obshchestvennogo truda i tsenoobrazovanie na sel'skoxozyaystvenno'e produkto'*. - M.: «Mo'sl 2, 1996.-243 b
- 2.1.10. Turgunov.S. *Rezervo' poyo'sheniya proizvoditel'nosti truda v xlopkovodstve*-T.: «O'zbekiston»1968 y.-152b.
- 2.1.11. Husanov R.H. *Paxta xom ashyosini yetishtirishda yangi texnologiyaning asosiy mohiyati*. – T.: «Mehnat», 1993. – 78 b.
- 2.1.12. Herbanya A.N. *Nauchnaya organizatsiya truda i upravlenie*.-M.: «Ekonomika», 1966 y.-431 b.
- 2.1.13. Adam Smit. *An Into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. New York, Random House, 1937, p.-326.
- 2.1.14. *Biznes- planirovanie: Uchebnik* G'pod red. Popova V.M., Lyapunova, S.I Mlodiko S.G -2-e izd., pererab. i dop. - M.: *Finanso' i statistika*, 2006. - 816s.
- 2.1.15. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. *Biznes - rejalashtirish. O'quv qo'llanma*. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 160 b.
- 2.1.16. Maxmudov E.X. *Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma*. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 160 b.
- 2.1.17. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. *Menejment*. -T.: O'qituvchi 2001, -702
- 2.1.18. Abdurahmonov Q. Mamarasulov F. *Mehnat iqtisodi* –Toshkent: 1996-229 b.
- 2.1.19. Akramov A. Yo'lchiev A. *Toshkent viloyatida dehqonchilikning ilmiy asoslangan tizimi*. – T.: 2000 –205 b.
- 2.1.20. Gliniano'y V.G., Marto'shkin G.S. *Ispol zovanie rabocheho vremeni v rastenievodstve*. - M.: «Kolos», 1978. – 112 b.
- 2.1.21. Radjapov R., Musaxodjaeva N. *Kompleksnaya mexanizatsiya i rost proizvoditel'nosti truda v xlopkovodstve*.-T.: «Mehnat», 1986 y.-110b.
- 2.1.22. Zokirov A., Jo'raev A. *Fan-texnika taraqqiyoti va paxtachilik*. - T.: «Mehnat», 1987. – 84 b.
- 2.1.23. Petrenko I.Ya., Chujinov P.I. *Ekonomika sel'skoxozyaystvennogo proizvodstva*. – Alma-ata: 1992-559 b.
- 2.1.24. Xasanjanov K.A. Muxammedov M.F. *Effektivnost primeneniya mineral'no'x udobreniy v xlopkovodstve*. – Toshkent: 1971-19 b.
- 2.1.25. O'lmasov A. To'xliev N. *Bozor iqtisodiyoti*. T.: Qomuslar, 1991- 138 b.

2.1.26. Kayumov F. Danilova L. Axmedova R. Rezervo' poyo'sheniya proizvoditel'nosti truda v xlopkovodstve. – T.: «Mehnat», 1986. – 137 b.

2.1.27. Nazarova M.G., Parteshko N.S., Rumyantsev V.N. Statistika truda. – M.: «Finanso' i statistika», 1981.- 285 b.

2.1.28. Xusanov R.X., Chernov A.P., Li M.R. teoriya ekologo-ekonomicheskix osnov razvitiya sel skogo xozyaystva. – T.: 2003.- 51 b.

2.1.29. Kozlova O.V., Bishaev M.A., Lenskaya S.A., Murzov K.I. Trud, texnika, ekonomika. – M.: «Mo'sl », 1970.- 318 b.

2.1.30. Shog'ulomov R., Hakim S., Husanov R., Mansurov Sh. Mustaqil yurt g'allasi. - T.: «O'zbekiston», 2003.- 134 b.

2.1.31. Aktual no'e voproso' ekonomiki sel skogo xozyaystva G' S.N.Usmanov taxriri ostida - T.: «O'zbekiston», 1984 – 179 b.

2.1.32. Poyo'shenie proizvoditel'nosti sel skoxozyaystvennogo truda G' Mashenkov V.F., Ivanov P.F., Cherkashinova O.I. i dr.: Mashenkov V.F. taxriri ostida.- M.: «Kolos», 1983 –319 b.

2.1.33. Rol finansov i kredita v poyo'shenii proizvoditel'nosti truda G' A.G. Gryaznova, M.S. Atlas, D.S. Molyakov i dr.: A.G. Gryaznova taxriri ostida. - M.: Finanso' i statistika, 1990 - 222 b.

2.1.34. Statisticheskoe izuchenie proizvoditel'nosti truda G'. A.G.Volkov, V.M.Simchera i dr.; T.V. Ryabushkin taxriri ostida – Moskva: Nauka, 1981 – 408 b.

2.1.35. Organizatsiya proizvodstva na sel skoxozyaystvenno'x predpriyatiyax G' B.I.Yakovlev, S.I. Azev, E.I.Galkin i dr.; B.I.Yakovlev taxriri ostida. – M.: «Agropromizdat», 1989- 409 b.

2.1.36. Otoboev A., Xusanov R., Qosimov M., Xamdamov A., Egamberdiev T., Inoyatov A., Shalimov B. Fermerlik xarakatini rivojlantirishda Yozyovon tajribasi. –T.: «Mehnat», 2003. – 101 b.

2.2. Ko'p tomli kitoblar:

2.2.1.Makkonel. K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: Printso'pi, problemo' i politika. Tallin, 1993. V 2 t.: 399-400 s.

4.1 Xudoyberdiev Z. Mehnatda bandlikning nazariy tavsifi. G'G' J. Iqtisod va hisobot. – 1997 № 6. – B. 72-73.

6. Hisobotlar va statistik materiallar

6.1. O'zbekiston Respublikasining 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.-T.:2014.-161 b.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi qishloq xo'jalik korxonalarining 2001-2012 yillardagi yig'ma xisobotlari.

6.3. Namangan viloyat stistikasi ma'lumotlari.

7. Internet saytlari

6.1. www.encycl.accoona.ru

6.2. www.technormativ.ru/main.phpes,

6.3. www.dev.csoft.spb.ru/Doclist/folder/648.html,

6.4. www.book.uz, study40.com.ru/book-44408.html.

6.5. www.stat.uz